

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 43 (1104), 2024-yil 29-fevral, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

“YASHIL” ENERGETIKA HAM IQTISODIYOT
DRAYVERLARIDAN BIRIGA, HAM CHINAKAM
UMUMMILLIY HARAKATGA AYLANMOQDAPrezident Shavkat Mirziyoyev 28-fevral kuni qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko‘paytirish
bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Tahlillarga ko‘ra, yurtimizda quyosh va shamol energiyasi salohiyati elektrga bo‘lgan hozirgi ehtiyojni 10-12 barobar ortig‘i bilan qoplashga yetadi. Lekin shunday ulkan imkoniyat ancha yillar davomida ishga solinmagan edi.

So‘nggi yillarda davlatimiz tomonidan bu sohaga katta e‘tibor qaratilib, huquqiy zamin yaratildi. “Yashil energiya” manbalarini barpo qilish bo‘yicha katta dasturlar boshlandi. Investorlar uchun jozibador muhit tashkil etildi.

Bugungi kunga qadar sohaga 2,1 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya kirib keldi, yana 13 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilyapti. Deyarli barcha viloyatlarda zamonaviy quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etilmoqda. Jumladan, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryoda 1,6 gigavattli 9 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushdi. Andijon, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatida 183 megavattli 6 ta yirik va kichik GESlar foydalanishga topshirildi.

Shuningdek, ijtimoiy soha obyektlari, korxona va tashkilotlar, tadbirkorlarga tegishli binolar va aholi xonadonlarida umumiy quvvati 457 megavattli quyosh panellari o‘rnatildi. Bu ishlarga banklar tomonidan qariyb 2 trillion so‘m resurs ajratildi.

Natijada qo‘shimcha 5 milliard kilovatt-soat ekologik toza elektr ishlab chiqarish va 1,5 milliard kub metr gaz tejash imkoniyati yaratildi.

Bu sohadagi keng qamrovli ishlar mahalliy korxonalarda transformator, har xil turdagi kabellar, isitish kollektorlari, quyosh paneli, izolyator, metall ustunlar kabi mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishga ham katta turtki berdi.

Bir so‘z bilan aytganda, “yashil” energetika — ham iqtisodiyotimiz drayverlaridan biriga, ham chinakam umummilliy harakatga aylanmoqda.

2024-yilda “yashil energiya” hajmi 13 milliard kilovatt-soatga, uning mamlakatimizdagi jami ulushi 15 foizga yetadi. Qisqa davr uchun bu juda katta ko‘rsatkich, albatta.

Lekin bu borada hali imkoniyatlar ko‘p, ular hamma hududlarda ham to‘liq ishga solinmayapti.

Shu bois, yig‘ilishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko‘paytirish va shunga yarasha infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha yangi rejalar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari sohadagi tajribaga tayanib, bu yildan yirik “yashil energiya” quvvatlarini yaratish bo‘yicha uch yillik dasturga o‘tish zarurligini ta’kidladi.

Aholi va iqtisodiyot tarmoqlari talabidan kelib chiqib, kelgusi uch yilda 8 gigavattli 28 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushiriladi. 944 kilometr yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari va 6 ta yirik podstansiya quriladi. Jami 2,2 gigavatt bo‘lgan 18 ta elektr saqlash quvvati o‘rnatiladi.

Energetika tizimining barqarorligini ta’minlash uchun ushbu quvvatlarga mos tarmoqlarni qurishni hamda zarur materiallar ishlab chiqarishni hozirdan boshlash kerakligi qayd etildi.

Energetika vaziri uch yillik dasturdan o‘rin olgan 2,6 gigavattli 14 ta stansiya bu yil ishga tushirilishi, ularni tarmoqqa ulash uchun 5 ta podstansiya quvvati kengaytirilib, 500 kilometr yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari qurilishi haqida axborot berdi.

Umuman, yangi quvvatlar hisobiga bu yil kamida 85 milliard kilovatt-soat, shundan quyosh va shamol stansiyalarida 6 milliard kilovatt-soat elektr ishlab chiqarilishi aytiladi.

Joylarda quyosh panellarini o‘rnatish holati ham ko‘rib chiqildi.

Aholining bundan manfaatdorligini oshirish maqsadida “Quyoshli xonadon” dasturi joriy qilingan. Unga ko‘ra, quyosh paneli o‘rnatgan aholidan har

1 kilovatt elektrni ming so‘mdan sotib olish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Hozirda 11 mingga yaqin xonadon egalari bu imkoniyatdan samarali foydalanayapti.

Bu ishlarni kengaytirish uchun uning jozibadorligini oshirish, quyosh paneli o‘rnatuvchilarga ko‘maklashish kerakligi aytiladi. Buning uchun qo‘shimcha 50 million dollar resurs ajratilishi, xorijiy investorlar ishtirokida yana 100 million dollar jalb qilinishi belgilandi.

Quyosh energiyasidan foydalanishda tadbirkorlarga ham qo‘shimcha yengilliklar yaratiladi. Jumladan, quyosh paneli, inverter va akkumulyatorlarni import qilishda bojxona imtiyozlari yana besh yilga uzaytiriladi.

Mutasaddilarga qishloq va suv xo‘jaligi, ichimlik suvi ta’minoti kabi energiya sarfi yuqori bo‘lgan sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo‘llash bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqish topshirildi.

Bu soha rivojlanayotgani boshqa turdosh tarmoqlarga ham ijobiy ta’sir etmoqda. Xususan, yirik quyosh va shamol stansiyalarini qurish, ularni tarmoqqa ulash, ta’mir va servis xizmati ko‘rsatish jaryonlarida mahalliy korxonalarimiz uchun kamida 1 milliard dollarlik bozor paydo bo‘lmoqda.

Shu bois, bu yil Qarshi shahridagi “Solar klaster”da quyosh paneli, akkumulyator, inverter, suv isitkich, Ohangaron sanoat zonasida kabel va transformator, Nukus shahri va Andijon tumanida quyosh panellari ishlab chiqarish loyihalashtirilgan.

Prezidentimiz mahalliy korxonalarga xalqaro sertifikatlarni olishda va ishlab chiqarishni xalqaro standartlarga moslashtirishga ko‘maklashish bo‘yicha ko‘rsatma berdi.

Energetika vaziri va hokimlar yig‘ilishda belgilangan vazifalar bo‘yicha ishni tashkil qilish rejalarini yuzasidan axborot berdi.

O‘ZA



BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

Milliy davlatchiligimizning uch ming yillik tarixi va tajribasidagi o‘chirib bo‘lmaydigan yorqin sahifalardan biri, shubhasiz, kengashib ish tutish an‘anasidir. Buyuk Amir Temurning “Davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim”, deya aytgani shunchaki gap emas, albatta. Yo‘l qo‘ygan katta-kichik xatolarimiz, boy berilgan qator marralarimizga qaramay, har kimga ham nasib qilmaydigan qadim, noyob va shonli o‘tmishimizni haqqoniy va erkin o‘rganish hamda yoritishga qo‘l urganimizga endigina olti-yetti yil bo‘ldi. Bugun uzoq vaqt ilmimiz, so‘ng u orqali xalqimiz ongiga singdirib kelingan soxta qoliplarni chilparchin etish imkoniga egamiz. Ulardan biri buyuk Sohbiqironning o‘ttiz besh yillik hukmdorlik faoliyati go‘yoki tinimsiz urush-talashlarda o‘tgani haqidagi to‘qimadir.

YASHAB QOLISHIMIZ SHARTI

Dunyoni Samarqand atrofida birlashtirishga erishgan donishmand bobomiz maqsadiga harbiy yurishlar emas, balki chuqur va har tomonlama bilim hamda kengashishlar orqali yetganini baralla aytishimiz kerak. Aytibgina qolmay, o‘zbek davlatchiligiga xos ushbu an‘ana — siyosiy madaniyat yangi O‘zbekistonda tiklangani va natijalarini berayotganini ham urg‘ulashdan tortinmasligimiz lozim.

Mana, to‘rt yildirki, har birimizning hayotimizda tengsiz ahamiyatga ega ma’naviyat va ma’rifat hamda xavfsizlik masalalari tahliliga bag‘ishlangan kengashlar ishida qatnashib kelmog‘damiz. Ushbu yig‘ilishlarga tegishli mansabdorlardan tashqari barcha ijtimoiy qatamlar vakillarining taklif etilishi boshida yangilik bo‘lsa, endi tabiiylikka aylandi. Eng muhimi, davlatimiz va jamiyatimiz uchun o‘ta dolzarb masalalar yechimi ustida bosh qotirishga el-ulusning o‘zi jalb qilinmoqda.

Yangi O‘zbekistonimizda ilk kunlardan qo‘llana boshlangan bunday yondashuv milliy davlatchiligimizning demokratiya, davlat boshqaruvi ochiqligi va fuqarolik jamiyatiga asoslangan bosqichini ilhomlantirishda qanday o‘rin tutayotgani alohida tadqiqotlar mavzusi ekanini urg‘ulagan holda e’tiborni tilga olingan kengashlarning so‘nggi yig‘ilishlarida umummilliy muhokamaga tashlangan bosh masalaga qaratsak.

Prezidentimiz Ma’naviyat va ma’rifat kengashining o‘tgan yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida: “...Biz hozirgi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi?” degan savollarni ko‘ndalang qo‘yib, “Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar

bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi”, deya barchamizni sergaklik va safarbarlikka chorlagani shunchaki emas!

Chindan ham teran o‘ylashga majbur qiladigan ushbu so‘zlarni eshitib, darhol miyamizga mana bu ikki fikr keldi. Biri “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir” chaqirig‘i bo‘lsa, ikkinchisi, Prezidentimizning davlat mustaqilligimizning o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan nutqidagi “Davlatning vazifasi insonlarni baxtli-saodatli qilishdir. Bu maqsadga esa ilm va yaxshi axloq yordamida erishiladi”, degan gaplardir.

Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON TASHABBUSI BILAN QABUL QILINGAN
BMT BOSH ASSAMBLEYASI REZOLYUTSIYASIbarcha davlatlar uchun dasturilamal bo‘lib, turizm sohasini yanada
rivojlantirish va tiklashga kuchli turtki beradi

BIZ VA DUNYO

26-fevral kuni BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan “2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili” rezolyutsiyasini bir ovozdan ma’qulladi.

Davomi 2-betda



IFTIXOR

XALQARO BARQAROR VA YASHOVCHAN TURIZM YILI

jahon madaniy-iqtisodiy, ma’naviy birdamlik
hayotidagi o‘zaro hurmat halqasiO‘zbekiston tashabbusi bilan ilgari surilgan “2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili”
rezolyutsiyasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan bir ovozdan ma’qullandi.

Shu xabarni o‘qishim hamon olis Surxon, Jarqo‘ton yodgorligi, eski Termiz, Teshiktosh yodgorligi ko‘z oldimga keldi. Qadimgi Termiz xalqaro savdo aloqalarida muhim o‘rin tutgan. Masalan, Kushonlar davrida Termiz

Xitoydan Hindiston va undan Yevropaga boruvchi tranzit savdoni amalga oshirgan. O‘sha davrda Termizga Hindistondan buddaviylik dini kirib keladi. Bu din yurtimizning janubida rivojlanib, yangi bosqichga ko‘tarildi hamda shu

tariqa jahon madaniy-ma’rifiy hayotida o‘chmas iz qoldirdi. Demogichimizki, dunyo xalqlarining moddiy-ma’naviy taraqqiyotida savdo, karvon yo‘llarining o‘rni va ahamiyati begiyos.

Davomi 2-betda

Bugunning gapi

OROL HUDUDIDAGI
“YASHIL QOPLAMA”LARsof havo fabrikasi
vazifasini o‘taydi

Orol dengizining suvi qurigan hududiga ekilgan saksovlul va boshqa o‘simliklar maydoni yil sayin kengayib boryapti. Mutasaddi va mutaxassislar bilan muloqotlarda shunchalik katta sa’y-harakatlar qanday samara beryapti, ekilgan ko‘chat va sepilgan urug‘lar qish sovg‘i, saraton jaziramasiga qanday chidayapti kabi savollarni berishimiz odat tusiga kirib qolgan. Ular bu borada raqam va misollarni dalil sifatida keltirsa-da, to‘g‘risi, ko‘ngil negadir to‘lavermasdi.


Yaxshiyamki, sun‘iy yo‘ldoshlar orqali mavjud manzarani kaftdek kuzatish imkoniyati mavjud. Ular o‘tgan yil dekabr oyi oxirlarida mutaxassislar amalga oshirayotgan ishlar samarasiga umid va ishonch uyg‘otuvchi suratlarni havola etdi. Bu tasvirlarda Orol dengizining suvi qurigan hududida o‘sayotgan saksovvullar maydoni yaqqol ko‘zga tashlanib turardi.

Bu haqda iqlimshunos Erkin Abdulahadov xabar berar ekan, 2018-yildan so‘ng Orolbo‘yida kuchli chang bo‘ronlari xavfi keskin kamayib ketganiga ham e’tibor qaratdi. Nainki chang (qum) bo‘ron chastotalari pasaygan, shu bilan birga, kelayotgan nam havo oqimlaridan Orolbo‘yi atrofida yog‘in jadalligi boshqa mintaqalarga nisbatan ortgan. Bu nafaqat havo aylanmalari (sirkulyatsiyasi) harakatidagi, balki Yer sirtidagi fitomassaning

o‘zgarishlari bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. “Mazkur loyihaning yurtimiz bo‘ylab keng miqyosda davom ettirilishi mintaq uchun juda ham zarur”, deydi iqlimshunos.

Haqiqatan, shunday. Davlatimiz rahbarining tashabbusi va topshirig‘iga ko‘ra, 2018-yil kuzidan buyon har yili viloyatlardan kelgan yordamchilar, O‘rmon xo‘jaligi agentligi va mahalliy fuqarolar ishtirokida Orol dengizining suvi qurigan hududida 1 million 730 ming gektar o‘rmonzor barpo etildi, ya’ni 17 ming kvadrat kilometr maydon ko‘kalamzorlashtirildi. Bu dengiz va okeanlardan uzoqda joylashgan nafaqat O‘zbekiston, umuman, mintaq cho‘llanishining oldini olishga qaratilgan juda ulkan loyiha va amaliy ishdur.

Davomi 4-betda

BOBURSHUNOSLIK
BO‘YICHA ILMIV
PLATFORMA YARATILDI

Hozirgacha boburiylar sulolasiga nisbatan mashhur bir xatolik asosida shakllangan “Buyuk mo‘g‘ullar sulolasi” atamasining ommalashgani, Bobur asarlari, xususan, uning eng yirik asari “Boburnoma”ning tanqidiy matni yaratilmagani ham jamoa oldiga qo‘shimcha vazifalar yuklagan.



Iftixor

XALQARO BARQAROR VA YASHOVCHAN TURIZM YILI

jahon madaniy-iqtisodiy, ma’naviy birdamlik hayotidagi o‘zaro hurmat halqasi



Boshlanishi 1-betda

Bugungi zamonaviy dunyoda ham bu tushuncha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ya’ni mamlakatlar rivoji uchun savdo aloqalari muhim ahamiyatga ega. Bunday aloqalar mustahkamligi uchun esa xalqlar orasida o‘zaro hurmat uyg‘usi bo‘lishi kerak. Binobarin, moddiy va ma’naviy birdamlik zanjir halqasidek bir-biriga uzviy bog‘liq.

Dunyo xalqlarini birlashtiradigan, ayni paytda katta sarmoya keltiradigan sohalaridan biri bu — turizm. Shu bois, joriy yil 26-fevralda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili” rezolyutsiyasi ma’qullangan tarixiy voqea bo‘ldi. Bu rezolyutsiyaning tashabbuskori O‘zbekiston ekani esa qalbmizda faxr uyg‘otadi. Axir dunyo xalqlari orasida sayyohlikni keng targ‘ib etish, bunga huquqiy va iqtisodiy imkoniyatlar yaratish tashabbusi orqali, aslida, do‘stlik, bag‘rikenglik hamda keng ko‘lamdagi hamkorlik taklifi bilan chiqaypmiz.

Qoraqalpog‘istondagi Chilpiq qal’asi tepasiga chiqib, bepoyon dashtlarni tomosha qilgan, Axsikentni ko‘zi bilan ko‘rib, tarixini o‘rgangan, neandertal bolaning tanasi topilgan Teshiktosh g‘origa sayohat qilgan kishi yurtimiz tarixi nechog‘liq boy ekanini teran his qiladi. O‘tmishimizga havasi, bizlarga hurmati oshadi. Endi tasavvur qiling, dunyo xalqlari orasida bir-biriga nisbatan shunday qarash shakllansa, avvalo, do‘stlik, hamfikrlik kengayadi, pirovardida yer yuzida tinchlik hukm suradi. “2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili” rezolyutsiyasi ana shunday jihatlar bilan muhim tarixiy hujjatdir.

Shu o‘rinda, mazkur hujjat xalqaro maydonda iliq kutib olinganiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Xususan, BMTga a’zo davlatlar vakillari ushbu rezolyutsiya o‘z vaqtida taqdim etilgani, bugunimiz uchun dolzarb ekanini e’tirof etdi. Rezolyutsiyaga 80 dan ortiq mamlakat hammualliflik qildi. Shuning o‘ziyoq fikrlar, qarashlar mushtarak ekanini anglatadi. Ayniqsa, hujjat matnini muvofiqlashtirish maslahatlashuvlarida Rossiya, Xitoy Xalq Respublikasi, AQSH, Turkiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Misr, Braziliya, Argentina kabi yetakchi davlatlarning ekspertlari faol ishtirok etib, rezolyutsiya mazmunini boyitishga muhim hissa qo‘shgani alohida jihat.

Xabaringiz bor, 2023-yil oktabr oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasida Prezidentimiz nutq so‘zlab, turizm sohasining yangi muammolar va zamonaviy xatarlar oldida barqarorligi va moshlashuvchanligi borasida fikr bildirgan edi. Ushbu fikrlar mazkur rezolyutsiyaning bosh maqsadi sifatida qabul qilangani bilan ahamiyatlidir.

Sir emas, bugun yakka hukmronlik istagidagi ayrim kuchlar madaniy yodgorliklarni ham, tarixiy qadamlarni ham ayab o‘tirgani yo‘q. Bunday vayronkorlik insonlar qalbidan nafratni kuchaytiradi. Iqtisodga katta zarar yetkazadi. Bu har tomonlama yo‘qotish, degani. Qabul qilingan hujjatda aynan sivilizatsiyalarning boy madaniy merosini asrash, tinchlik va bag‘rikenglikni mustahkamlash, xalqlarning qadriyatlarini hurmat qilish kabi tamoyillar mustahkamlangan.

Afsuski, bugun ayrim kuchlar xalqlar o‘rtasidagi hurmat tuyg‘usini yo‘qotishga xizmat qilyapti. Turli mintaqalarda kuzatilayotgan o‘zaro nizo va

beqaror vaziyatlar esa global turizmning eng dolzarb muammosiga aylanmoqda. Shu bois, sayyohlar xavfsizligini ta’minlash kun tartibidagi muhim vazifa hisoblanadi. Xavfsizlik ta’minlanmas ekan, jozibador va an’anaviy yo‘nalishlarda turizm salohiyati va sayyohlar soni keskin pasayaveradi.

Davlatimiz rahbari shuning uchun ham hozirgi murakkab vaziyatni inobatga olib, xalqaro turizm sohasida mustahkam huquqiy asoslarni kuchaytirish maqsadida BMT doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqishni taklif etgan edi. “2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili” rezolyutsiyasi ana shu yo‘lda tashlangan katta qadamlardan biri bo‘ldi.

Sanoat-ishlab chiqarish rivojlangani sari tabiatga yetkaziladigan xatarlar ortib borishi tabiiy, albatta. Shu bois, xalqaro maydonda tabiatni asrash, ekologik

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: 2027-yilni Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili deb e’lon qilish soha rivoji uchun qanday imkoniyatlar yaratadi?

Yil nomi shunchaki rasmiyatchilik uchun aytilmaydi. Unga munosib ravishda xalqaro hujjatlar, kelishuvlar amalga oshiriladi. Shu bois, Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yilida, tom ma’noda, sayyohlik uchun qator imkoniyatlar eshigi ochilishi kutilmoqda. Avvalo, BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti hukumatlar, BMT tizimidagi tuzilmalar, mintaqaviy tashkilotlar bilan birgalikda yilni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun kompleks choralar ko‘rishga chaqirildi. Ya’ni hamkor tashkilotlar va hukumatlar hujjatda ko‘rsatilgan chora-tadbirlar uchun hozirdan reja tuza boshlaydi. 2027-yilda esa shu reja asosida belgilangan vazifalarni bajarishga kirishadi.



muammolarga birdamlikda yechim izlash maqsadga muvofiq. Ammo doim ham hammani birdek bu masala atrofida birlashtirish oson kechmaydi. Chunki aholi soni oshishi, raqobat kuchayishi ortidan moddiy manfaatlar ustunlik qilaveradi. Mamlakatlarni ekologik muammolar atrofida birlashtira oladigan muhim jihatlardan biri esa “yashil” turizmdir. Bunday sayyohlikning rivojlanishi davlatlarga katta miqdorda sarmoya olib keladi. Buning uchun, avvalo, bioxilma-xillikni asrash,

Xo‘sh, vazifalar nimalarni o‘z ichiga oladi?

Yuqorida ta’kidlanganidek, avvalo, xavfsizlik masalasini ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi. Dastlab mamlakatlar ichki xavfsizligini ta’minlashi, bu orqali xorijlik sayyohlarni o‘ziga jalb etishi zarur. Negaki, ichki ziddiyatlar ko‘p, qonunbuzarliklar tez-tez sodir etiladigan joyga hech kim yurak yutib boravermaydi. Shu o‘rinda, Amir Temur salтанatida o‘rnatilgan tinchlikni eslash o‘rinli. Solnomachilarning qayd etishicha,



atmosfera ifloslanishining oldini olish talab etiladi.

Rezolyutsiyada “yashil” turizmni rivojlantirishga e’tibor qaratilgani shu jihatlar bilan ham ahamiyatga molik. Ekoturizm iqtisodiy o‘shish, to‘liq bandlikni ta’minlash, qishloq hududlarini rivojlantirish va qishloq aholisining yashash sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu orqali barqaror rivojlanishga erishiladi.

ushbu saltanatning bu boshidan u boshigacha qatnagan karvonlarning bir tangasi ham kamaymagan. O‘g‘irlik, talonchilik bo‘lmagan. Shuning uchun ham o‘sha davrda mamlakat poytaxti bo‘lgan Samarqand yirik madaniy, iqtisodiy markazga aylandi. Buni zamonamiz iborasi bilan aytganda, buyuk bobokalonimiz o‘z davrida vizasiz rejimning mukammal namunasi yaratgan.

Biz so‘zimiz avvalidan boshlab sayyohlik

iqtisodiy barqarorlik omili ekaniga urg‘u beryapmiz. Bunday barqarorlik, avvalo, ijtimoiy adolati ta’minlashi shart. Boshqacha aytganda, u orqali kambag‘allikni bartaraf etish zarur. Buning uchun jamiyatning zaif qatlamiga ko‘proq e’tibor berish kerak bo‘ladi.

Rezolyutsiyada aynan shu jihatga ham urg‘u berilgan. Ya’ni turizmni rivojlantirishda ayollar, yoshlar, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning ishtirokini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Soha iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, munosib ish joylari va daromad manbalarini yaratishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Albatta, shunday taklif bilan o‘rtaga chiqayotgan mamlakat boshqalarga o‘rnak bo‘lishi ham kerak. Axir ajdodlarimiz gapi va amali bir insonning so‘zi odamlar qalbiga yetib borishini bejiz aytmagan. Mamlakatlar ham shunday. Uning xalqaro maydonda aytayotgan so‘zi va amal qilayotgan qoidalarini bir bo‘lsagina, ishonch qozonadi. Shu ma’noda, yurtimizda turizm sohasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilayotganini ta’kidlash joiz. Birgina misol, o‘tgan qisqa vaqtda Samarqand shahrida turistik infratuzilmani yaxshilash uchun 1 milliard dollardan ortiq mablag‘ investitsiya qilingan. Sayyohlar xavfsizligini ta’minlash maqsadida turizm politisiyasi tashkil etildi. “Amirsoy” qishki kurorti, “Afsonalar vodiysi”, “Zomin” va “Chorvoq” zonalarini ko‘plab xorijiy sayyohlar e’tiborini tortadigan xalqaro turizm maskanlariga aylandi.

Maqola avvalida Jarqo‘ton, Teshiktosh yodgorliklarini bejiz eslamadim. Negaki, bu tarixiy joylarni ko‘rib, tarixi bilan tanishib hayratlanganman. U joylardan boshqalar ham men kabi zavq olsa, yurtimizning uzoq va shonli tarixi bilan tanishsa, deb orzu qilaman. Bu, ayniqsa, hozirgi kunda juda muhim. Zero, qandaydir shovinistlar uzoq o‘tmishga

ega xalqning davlatchilik tarixi haqida gapirishning oldin jiddiy o‘ylashga majbur bo‘lardim.

Eng qadimgi shahar-davlatlardan biri bo‘lgan Jarqo‘ton yodgorligi Sherobod tumanining chekkasida, biyday dashtda, ekin maydonlariga tutash yerda joylashgan. Dunyo tajribasidan kelib chiqib, qadimgi shahar poydevori asosida sayyohlik maskani qilinsa, qanday ajoyib ish bo‘lardi.

O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan rezolyutsiyada ekoturizmni rivojlantirishga ham alohida urg‘u berilganki, Teshiktosh aynan shu turdagi sayyohlik oqimiga mos keladigan makon hisoblanadi. Ulkan tog‘ bag‘ridagi bu qadimiy maskan nafaqat tarixiy ahamiyati, balki betakror tabiati bilan ham kishini o‘ziga jalb etadi. Bu men biladigan tarixiy joylardan ijkitasi, xolos. E’tiborli va e’tirofli jihatti, yurtimizda bu kabi maskanlar juda ko‘p. Ularning aksariyati sayyohlik makoniga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi. Masalan, Orol bo‘yiga sayohat qilish ommalashib boryapti.

Bir so‘z bilan aytganda, ushbu rezolyutsiyada belgilangan ko‘lamdor va ustuvor vazifalar doirasida yurtimizda sayyohlik yanada rivojlanishiga hech shubha yo‘q. Turizm maskanlari safi ko‘payishi va turistik xizmatlar sifati oshishi, o‘z navbatida, sayyohlik uchun yanada qulay muhit yaratilishi, eng asosiysi, aholi farovonligini oshirish hamda iqtisodiyotimiz barqarorligiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Binobarin, ekspertlar O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan rezolyutsiya turizm sanoatining global darajada yangi bosqichga ko‘tarilishini boshlab berganini bejiz ta’kidlamadi.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
jurnalist

BIZ VA DUNYO

O‘ZBEKISTON TASHABBUSI BILAN QABUL QILINGAN BMT BOSH ASSAMBLEYASI REZOLYUTSIYASI

barcha davlatlar uchun dasturilamal bo‘lib, turizm sohasini yanada rivojlantirish va tiklashga kuchli turtki beradi



Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston rahbari tomonidan turizmning turli sivilizatsiyalar boy madaniy merosini asrashda, tinchlik va bag‘rikenglikni mustahkamlashda, xalqlarning qadriyatlarini hurmat qilishda muhim o‘rin tutishi to‘g‘risida bayon etilgan tamoyillar ushbu rezolyutsiyada mustahkamlangan.

Hujjatda ekologiya, bioxilma-xillikni asrash va atmosferaning ifloslanishini kamaytirish yo‘lida “yashil” turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan, shuningdek, BMTning butun dunyo bo‘ylab ekologik toza va barqaror turizmni rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlari olqishlangan.

Delegatsiyalar O‘zbekiston tashabbusini yuqori baholadi. Shuningdek, 2023-yil oktabr oyida Samarqandda muvaffaqiyatli o‘tkazilgan BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh Assambleyasi

tiklana oldi va 2024-yilda 2019-yil darajasiga qaytishi kutilmoqda. Bu Xalqaro yil uchun belgilangan maqsadlarni to‘liq amalga oshirishga mustahkam poydevor yaratadi va UNWTOning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun a’zo davlatlar bilan birgalikdagi sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Biz, UNWTO sifatida ushbu tashabbusning qabul qilinishidan xursand bo‘lish barobarida rezolyutsiyani amalga oshirish doirasida xalqaro miqyosda tegishli tadbirlarni tashkil etish mas’uliyatini o‘z zim-mamizga olishga tayyormiz”.

Tadbir yakunlari bo‘yicha BMT yangiliklar xizmati O‘zbekiston va Maldiv orollari tashabbusi bilan qabul qilingan ushbu rezolyutsiyaga bag‘ishlangan “Bosh Assambleya 2027-yilni Xalqaro barqaror turizm yili deb e’lon qildi” sarlavhali maqolani chop etdi.

Unda qayd etilishicha, rezolyutsiya BMTga a’zo davlatlarni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimidagi tuzilmalar, min-

Bosh Assambleya yig‘ilishida shaxsan ishtirok etish uchun Madriddan kelgan UNWTO ijrochi direktori Zoritsa Uroshevich Jahon sayyohlik tashkiloti BMT Bosh Assambleyasi tomonidan bir ovozdan qabul qilingan bunday muhim rezolyutsiya tashabbuskori bo‘lgan O‘zbekiston rahbariyatiga chuqur minnatdorlik bildirishini ta’kidladi.

25-yubiley sessiyasining mantiqiy davomi bo‘lgan mazkur rezolyutsiya o‘z vaqtida qabul qilingani va dolzarbligi alohida ta’kidlandi.

Ekspertlar fikricha, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan mazkur rezolyutsiya turizm sanoatining global darajada yangi bosqichga ko‘tarilishini boshlab beradi.

Bosh Assambleya yig‘ilishida shaxsan ishtirok etish uchun Madriddan kelgan UNWTO ijrochi direktori Zoritsa Uroshevich Jahon sayyohlik tashkiloti BMT Bosh Assambleyasi tomonidan bir ovozdan qabul qilingan bunday muhim rezolyutsiya tashabbuskori bo‘lgan O‘zbekiston rahbariyatiga chuqur minnatdorlik bildirishini ta’kidladi.

“Bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘tgan yil oktyabr oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan UNWTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasida bildirgan fikrlariga to‘liq mos keladi, — dedi u. — Rezolyutsiya barcha davlatlar uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi va ko‘plab inqirozlar hamda koronavirus pandemiyasidan jabr ko‘rgan, bi-roq aql bovar qilmaydigan chidamlilikni namoyish etgan turizm sohasini yanada rivojlantirish va tiklashga kuchli turtki bo‘ladi. Turizm sektori 88 foizga qayta

taqaviy tashkilotlar bilan birgalikda yilni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun kompleks choralar ko‘rishga chaqiradi.

U barcha manfaatdor tomonlarga barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish va tezlashtirish vositalaridan biri sifatida barcha darajada, jumladan, xalqaro hamkorlik yo‘nalishi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko‘maklashish, shuningdek, barqaror va yashovchan turizmni qo‘llab-quvvatlash uchun Xalqaro yilni samarali o‘tkazishdan foydalanishni tavsiya qiladi.

“O‘tgan yilning oktyabr oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan UNWTO Bosh Assambleyasi sessiyasi muayyan ustuvorliklar atrofida sohani uzoq muddatli o‘zgartirish bo‘yicha aniq qarashlarni ilgari surish muhimligini tasdiqladi”, deyiladi maqolada.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning aytishicha, turizm jahon iqtisodiyotining eng yirik tarmoqlaridan biri sifatida madaniyatlarni yaqinlashtirish, yangi imkoniyatlar yaratish va barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish uchun ulkan salohiyatga ega.

“Dunyo” AA
Nyu-York shahri

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

MA’NAVIY HAYOTIMIZDA YANGI O‘ZGARISHLAR DAVRI BOSHLANAYOTGAN EKAN, HARBIY-VATANPARVARLIK OMILI UNING TOJI BO‘LISHI, YA’NI BARCHAGA — HAM O‘ZIMIZ, HAM TASHQARIDAGILARGA KO‘RINIB TURISHI LOZIM!



Azamat ZIYO,
FA Tarix instituti
direktori, akademik

Boshlanishi 1-betda

Ulug‘ bobomiz Abdulla Avloniyning yuz yil burungi da‘vati bir asr vaqt o‘tib ham tarixiy qimmatini yo‘qotmaganini tan olish kerak. Bilim, izlanish, o‘z ustida ishlash taqozosi yangi O‘zbekistonimizning ilk paytlaridan hozirgacha kun tartibidan tushgan emas. Biroq aynan mazkur omil endilikda dolzarblashuvining o‘z sabablari bor, deb o‘ylaymiz.

Kim nima desa-desin, lekin xalqaro munosabatlarda o‘ziga xos o‘ringa ega farang davlatining yetakchisi Makron janoblarning O‘zbekistonga kelib, Registonni yana bir ko‘rsam, deyishida shunchaki bir tasodif va ramziy nimadir bor, demagan bo‘lardik. Yo bo‘lmasa, yer osti, yer usti boyliklari uchun bosib olinib, bir yuz ellik yil paxtasi va gazi chetga tashib ketilishi, sotilishiga “ixtisoslashtirilgan” o‘lkada ularning teskari “oqishlari”ga erishish ko‘pchilik o‘ylayotganidek, aniqrog‘i, xayoliga ham keltirmayotganidek oddiy bir ko‘rsatkich emas. Xo‘sh, buning sababi nima?

Sababi, o‘zbek davlati kuchga aylanmoqda, borgan sari o‘z tarixiy haq-huquqini qaytarib olmoqda. Kimlardir boshida yangi O‘zbekiston g‘oyasiga ishonmagan, ko‘p yillik ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy botqoqlikdan chiqib ketishimizga aqllari yetmagan yoki buni istamagan bo‘lishi mumkin. Ammo 2016-yil kuzida boshlangan o‘zgarishlar va yangilanishlar jarayoni ulami biz bilan hisoblashishga, yutuqlarimizni tan olishga majbur etmoqda.

Ushbu haqiqatning boshqa, parda orti tomoni ham bor. Hali u yoqda, hali bu yoqda “O‘zbekiston kim tomondan?” degan siyosiy savollar paydo bo‘lgan paytda davlatimiz rahbari tomonidan o‘tgan yil ko‘klamda Termizdagi chiqishida aytilgan “Millatim, xalqim, buyuk O‘zbekiston tomonidaman”, degan dangal javobning mag‘zini xuddi shu nuqtayi nazardan chiqib ko‘rsak, vaziyat yanada oydinlashadi.

Uch ming yillik tarixga ega o‘zbek davlati o‘z tabiati iligidan quvvat olib, yangilanish kuchidan bo‘y-basti ulg‘ayib borgan sari tashqi xurujlar ham jonlanishdan tinmayotganini ilg‘amaslik mumkin emas. Axir Markaziy Osiyo — Turkiston va turkiy dunyoni birlashtirish, afg‘oniston bilan munosabatlarni yaxshilash, islom oiladagi azaliy mavqeiini tiklashni boshlash, manaman degan davlatlar bilan tengma-teng gaplashish biz dunyo ishlaridan yuz ellik yil uzilib qolganimiz sharoitida xalqaro miqyosdagi azaliy va merosiy o‘rinlarimizni bo‘lishib olganlarga yoqadimi? Albatta, yoqmaydi.

Inson haq-huquqlari, so‘z, ne‘t, etiqod erkinlik, erkin saylov, majburiy mehnatni tugatish, mulk daxlsizligini ta‘minlash singari o‘nlab omillar, eng avvalo, o‘zimizga kerak. Negaki, ularsiz zamonaviy davlatchilgimizni yaratolmaymiz, ilg‘or va raqobatbardosh turmush tarzimizni yo‘lga qo‘yolmaymiz. Yangi O‘zbekistondan bosh muddao ham aslida shu! Biroq ularning kimlarningdir qo‘lida bizga qarshi qurol o‘laroq xizmat qilishi, boshimiz uzra urto‘qmoq bo‘lib turishiga ham hech qachon ko‘nmaymiz! Boshqacha aytganda, qandaydir yetti yil ichida mazkur necha asrlik muammolarni bartaraf etish borasida erishgan tarixiy va inqilobiy yutuq hamda maralarimiz kimlarningdir qistovi bilan emas, balki millatimizning yuksalish manfaatlariga ko‘ra amalga oshirildi va shunday davom etajak!

Jarayonni umumlashtirib tahlil etsak, ushbu o‘ta qisqa muddat yana bir haqiqat — o‘zbekning qo‘lidan ancha-muncha ishlar kelishini, agar qattiq kirishsa va oqilona siyosat yuritrsa, har qanday to‘siqni bosib o‘ta olishini ayonlashtirdi. Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi yig‘ilishida tilga olingan sohalarni raqamlashtirish, “yashil”

va innovatsion texnologiyalarning jadal kirib kelishi, butunlay yangicha va zamonaviy sanoat, energetika majmualari, avtomobil va temir yo‘llar, texnopark va IT-parklar, “aqlli” va elektron boshqaruv tizimlari barpo etish singari jihatlar bugungi milliy iqtisodiyotimiz uchun tabiiylikka aylanib ulgurgan, biroq ular o‘n yil burun orzu-havas ekani ko‘zda tutilsa, “jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir” tenglamasi mohiyatini chuqurroq anglash imkonini tug‘diradi. Ya‘ni milliy iqtisodiyotning ko‘lam va sifat darajasi ma‘naviy-ma‘rifiy muhitning mazmunini belgilab beradi.

Demak, “Bugungi O‘zbekiston kechagi O‘zbekiston emas, bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas” ekan, biz uchun hayot-mamot masalasi sanalmish yaxshi axloqni tarbiyalash ishini ham eskicha qarash va yondashuvlarda davom ettirishga haqqimiz yo‘q! Shu ma‘noda, kengashda “Ma‘naviyat va madaniyat sohasidagi ishlarimiz uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyamizni



Jadidlarimiz-chi? Ularning o‘n to‘qqizinchi yuzyillik oxirlaridan yigirmanchi yuzyillik o‘ttizinchi yillari so‘ngigacha — qirq yilni mustamlakachilik sharoitidagi g‘oyaviy-siyosiy maydonda tinimsiz kurashlarda o‘tkazganining ahamiyatiyu uqubatlarini hali ham tushunib yetmadik! Ulug‘ yozuvchi va shoir Cho‘lponning “Qullik qo‘shig‘ini tinglag‘on menmen...” Hayvon qatorida sanalg‘on menmen” satrlari ortida millatimiz boshiga tushgan ne-ne savdolar faryodi borligini bugungi yoshlarimiz ongiga singdirishimiz o‘ta-o‘ta zarur ishdirl!

dunyoga keldi. Shu tariqa sobiq sho‘ro mafkurasini qon-qoniga singib ketgan, Stanislavskiy-Danchenko “tizimi”dan boshqasini tan olmaydigan sohaga ham yangilanish yellari kirib bordi. To‘g‘ri, ular mukammal emas. Bo‘lishi ham mumkinmas. Negaki, bu borada bizda, yumshoqroq aytganda, tajribaning o‘zi yo‘q edi. Demak, yo‘l-yo‘lakay o‘rganishimizga to‘g‘ri kelyapti.

Prezidentimizning korxona va muassasalarda

YASHAB QOLISHIMIZ SHARTI

bo‘yida turib, amakisi Hoji barlosga qaratayotgan mana bu so‘zlarini o‘zbekning har bir avlodi va bolasi hech qachon unutmasligi shart: “Agar biz Vatanni tashlab ketsak, ota yurtimiz begonalar ko‘liga tushajak”.

Aynan mazkur siyosiy qarash — el-yurt qayg‘usi o‘laroq qo‘yilgan ilk botir va oqil qadam o‘n yil deganda vatanni kelgindilardan butkul tozalash va yana o‘ttiz besh yil deganda buyuk saltanat qurish, Samarqandni dunyo markaziga aylantirish, Ikkinchi Uyg‘onish davri poydevorini qo‘yish imkonini tug‘dirganini hech kim inkor eta olmaydi!

Agar chuqurroq o‘ylab ko‘rilsa, o‘zimiz va jahon xalqlari tarixidagi hamma ulug‘ ishlar vatan omilidan boshlangani, barcha qahramonliklar Yurtini asrash yo‘lida yuz bergani ayonlashadi.

Shu ma‘noda, Ma‘naviyat va ma‘rifat



mas haqqati bor. Biroq yana bir, ko‘pchilik e‘tibordan panada qolayotgan jihat borki, eng ulkan yutug‘imiz ham aslida shudir: otanonalar, buva-buvilarning kamida chorak kam yuz foizi bola-chaqalari haqida qayg‘urishni boshladi. Demak, kelajagimiz haqida kuyinishni o‘rganayotgan ekamiz, umummilliy darajadagi yaxshi xulq omilidan ko‘z yummaslikka ham tayyormiz. Bu esa, o‘z o‘rnida, Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi yig‘ilishining so‘ngida “...bugungi uchrashuv ma‘naviy hayotimizda yangi islohotlar davrini boshlab beradi”, deb bildirilgan ishonchning negizi bo‘la oladi.

Ushbu poydevorning bosh g‘oyasi esa ming yillar ichra sinovdan o‘tib kelayotgan omil — yurtsevarlik va millatsevarlik bo‘lib qolishiga hech bir shubha yo‘q. Zero, barcha ulug‘ ishlar xuddi shu kuchdan, zavol topishlarning hammasi aynan shu qudratning yo‘qqa chiqarilganidan boshlangan. Ilm-fan qanchalar ilg‘arilab ketmasin, iqtisodiyot naqadar yuksalmasin, yurtsevarlik va millatsevarlik qimmatining ohori hech qachon to‘kilmaydi. Shu ma‘noda, Sohibqiron bobomiz siyosiy faoliyati boshlangan palladagi o‘ta muhim, biroq temurshunoslar tomonidan ilg‘anmay yoki atayin chetlab kelinayotgan bir jihatga diqqatni torgan bo‘lardik.

1360-yili tarixiy Mo‘g‘uliston hukmdori Tug‘luq Temurxon qo‘shin tortib kelayotganini eshitgan barcha yirik siyosiy kuchlar turtaraqay bo‘lgan paytda hali yigirma beshga to‘lmagan Temurbekning O‘g‘uz (Amudaryo) daryosi

erkak va ayollarning yurt uchun javobgarlikdagi tenglik omili bor. Buni o‘sha kezlarga oid, xotin-qizlarga tegishli qablardan qurol-yarog‘lar ham topilgani isbotlaydi. Agar o‘sha kezlal tushunchalariga ko‘ra, dunyodan o‘tganlarni ular tirikligida eng aziz va zarur sanalgan narsalari bilan ko‘mish odati bo‘lgani ko‘zda tutilsa, kindik qoni to‘kilgan tuproq himoyasi burchi jonsiz momolarimizning arvohlarida ham yashagani oydinlashadi.

Oradan 2000 yil o‘tib ham, xususan, Amir Temur qo‘shinida nayza sanchish, qilich o‘ynatish, yoydan o‘q uzishda mohir erkaklardan qolishmaydigan xotin-qizlar bo‘lganiga doir guvohliklar esa jangovarlik ruhi o‘zbek ayollarini hech qachon tark etmaganiga yorqin tasdiqdir.

Davlatimiz rahbari vazirning yuragi men o‘zbekman deya faxrlanib, vatandarparvarlarcha urishi borasida bekorga kuyinib so‘zlamadi. Biz bugun nozikta‘b, jismoniy urinishlarga yo‘qdek qabul qiladigan ijod va din ahlini ham ko‘zda tutib aytadigan bo‘lsak, o‘tmishda millatimiz boshiga tushgan sinovli kunlarda men davlat amaldoriman, men ijodkorman, men imomman, deya chetga chiqishlar bo‘lgan emas.

Mavqeidan qat‘i nazar, barcha amaldorlar, jumladan, hokimlar, vazirlar, g‘aznachidan bakovulgacha qo‘lda qurol bilan urush maydonlarida javlon organiga oid misollar manbalarda yetarlicha topiladi. Eng muhimi, ular bolalikdan harbi ishi — qilich chopish, yoydan o‘q uzishga o‘rgatilgan va bu borada o‘z ustida tinimsiz ishlagan.

Najmiddin Kubroning Chingizxon qo‘shiniga qarshi jangda kaftida bayroqni qattiq tutganicha jon berganini zo‘rg‘a aytamizku, biroq din peshvolarimizga ibrat o‘laroq urg‘ulamaymiz. Turli yengil-yelpi bahonalarni orqali Dukchi Eshon jasoratini ham yo‘qqa chiqardik. Holbuki, unga bahoni mustamlakachi harbiy prokurorning o‘zi berib qo‘ygani edi: “Dukchi Eshon o‘lkada rus hukmronligini ag‘darish maqsadida qishloq va shahar aholisini qurol bilan bosh ko‘tarishga oltantirdi”. Mana, bizning din peshvolarimiz qanday bo‘lgan — millat, yurt uchun dorga tik boqgan!

Bosqinchilarga qarshi urushlarda olimlar, ijod, qalam ahli ham chetda turgan. Bunga oid misollar yetarli. Ulardan biri o‘zbekning ulug‘i Mahmud Chag‘miniy bilan bog‘liq. Quyoshni o‘zidan nor tarqatuvchi sayyoralarining markazi, deb hisoblash mumkinligi, atom va molekular haqida ilmiy qarashlarni ilgari surgan buyuk olimimiz ham 1221-yili Chingizxon qo‘shiniga qarshi kurashda shahid ketganini barchamiz, ayniqsa, ziyolilarimiz hech qachon esdan chiqarmasligi kerak.

Kelasi yil 160 yil to‘ladigan Toshkent himoyasining guvohi bo‘lgan tarixchining “Shahar ahlining yetti yoshidan yetmish yoshgacha erkak-xotin, yosh-qarisi xizmat kamarini bellariga bog‘lab, pishgan taomlarni boshlariga ko‘tarib, qatiq, sut, sharbat, issiq non va shirin mevalarni savatlarga solib, yurt qo‘riqchilari turiga joylarga olib borib, iltijo, tavallo va dildordlik qilib, ko‘zlaridan hasrat yoshlarini oqizib, ko‘z yoshlari bilan ular yuzlaridagi changu g‘uborlarni yuyib, ko‘zgudek artib-tozalab, keltirgan narsalarini yeb bitirishlarini iltijo qildilar”, deb yozganini izohlash ortiqcha, albatta.

Jadidlarimiz-chi? Ularning o‘n to‘qqizinchi yuzyillik oxirlaridan yigirmanchi yuzyillik o‘ttizinchi yillari so‘ngigacha — qirq yilni mustamlakachilik sharoitidagi g‘oyaviy-siyosiy

maydonda tinimsiz kurashlarda o‘tkazganining ahamiyatiyu uqubatlarini hali ham tushunib yetmadik! Ulug‘ yozuvchi va shoir Cho‘lponning “Qullik qo‘shig‘ini tinglag‘on menmen...” Hayvon qatorida sanalg‘on menmen” satrlari ortida millatimiz boshiga tushgan ne-ne savdolar faryodi borligini bugungi yoshlarimiz ongiga singdirishimiz o‘ta-o‘ta zarur ishdirl!

Hurriyat tuyg‘usi va davlatchilik bor ekan, vatanparvarlik ruhi va tarbiyasi masalasi, undagi jangovarlik, yurt uchun jondan kechish mavzusi hech qachon o‘lmaydi! Negaki, eng zamonaviy qurolni ham inson boshqaradi. Insonni esa irodasi!

G‘arblik ko‘pni ko‘rgan bir donishmandning aytib berishicha, Vyetnam urushida yutqazilgan urush o‘tgan asr yetmishinchi yillari ikkinchi yarmida AQSH yoshlarining harbiy xizmatga qiziqishi o‘ta susayib ketganu saksoninchi yillardan yana jonlana boshlagan. Buning sababini eshitib hayron qoldik: 1982-yili kattakichik ekranlarga “Rembo” filmi chiqqan, aniqrog‘i, chiqarilgan! Ya‘ni milliy qahramon paydo bo‘lgan. Keyingi yillarda ushbu ruknda yana beshta kinoasar, bolalar uchun multserial ishlangani, qanchadan-qancha videoo‘yinlar o‘ylab topilgani ham bejiz emas.

Shu ma‘noda, Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashida “Tirik tarix” rukni ostida Vatanimizning shonli o‘tmishiga bag‘ishlangan 50 ta badiiy film yaratish masalasi o‘rtaga tashlanganini alohida urg‘ulagan bo‘lardik. Tarixda o‘tgan ulug‘ shaxslar va o‘tmishda yuz bergan buyuk voqealarning ko‘lami borasida uncha-muncha millat va davlat bizning oldimizga tushmaydilar, desak xato gapirmagan bo‘lamiz. Biroq Tomir xotun, Shiroq, Mahmud Torobiy, Mavlonzoda, Abdurahmon javochi, Ibrohimbek



singari o‘nlab milliy qahramonlarimiz bo‘la turib, yaqin-yaqingacha ularni ommalashtirish, ayniqsa, millionlar emas, milliardlar ongiga yetib borish kuch-qudratiga ega nodir va o‘tkir qurol — kino orqali ushbu ustunligimizni yuzaga chiqarolmay kelganimiz ham haqiqatdir.

So‘nggi yillarga kelibgina bu borada ilk qadamlarni tashlash imkoni tug‘ildi. Bugungi erkin hayotimiz uchun boshlarini kundaga qo‘yg‘an jadid bobolarimizga bag‘ishlangan kinoasarlal, jumladan, “Avloniy”, “Ibrat”, shuningdek, “Imom Termiziy”, “Islomxo‘ja”, “Ilhaq”, “Memdirmam Jaloliddin” singari filmlar

yo‘nalishlarida tub o‘zgarishlar yuz berib bo‘ldi. Yuz beribgina qolmay, bizni boshqacha ishlash va yashashga undamoqda, dunyo miqyosidagi keskin raqobatga chorlamogda. Demak, endi barchasi o‘zimizga bog‘liq bo‘lmogda: yo hayot, yo mamot — yo bugun, yo hech qachon! Bu yorug‘ dunyoda yashab qolishimizning ushbu sharti bajarilishini esa Prezidentimizning mana bu da‘vati kafolatlashiga qattiq ishonamiz: “Xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg‘usini kuchaytirish”.



Bugunning gapi

OROL HUDUDIDAGI “YASHIL QOPLAMA”LAR sof havo fabrikasi vazifasini oʻtaydi



Abdurauf QORJOV, shaharlovchi

Boshlanishi 1-betda

Dengizni avvalgi holatiga qaytarib boʻlmaydi, lekin...

Tadqiqotchilar tahlilicha, mamlakatimizning 80 foizi choʻl va yarim choʻllardan iborat. Hozirgi vaqtda qariyb 10 million gektar yaylovlar tubdan yaxshilanishga muhtoj boʻlsa, koʻchadigan qumlar qariyb 1 million gektar maydonni egallaydi va uning ikki yuz ming gektari soʻnggi vaqtda sugʻoriladigan yerlar atrofida paydo boʻlgan. Keyingi davrda Orol dengizi suvining qurishi tufayli mamlakatimizda yana qoʻshimcha 3 million gektardan ortiq maydonda Orolqum choʻli paydo boʻladi. Natijada ushbu mintaqada ekologik muhit yomonlashib, choʻllanish jarayonlari yanada kuchaydi va koʻplab ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirdi. Hisob-kitoblarga qaraganda, Orolqumdan koʻtariladigan qum va chang boʻronlari tufayli yoʻqotishlar Qoraqalpogʻistonda yiliga 44,2 million dollari yoki yalpi ichki mahsulotining 2,1 foizini tashkil etadi.

Ayni kezza texnologik jihatdan Orolni avvalgi holatiga qaytarishning iloji yoʻq. Bunday sharoitda yagona yoʻl — borini asrab qolish, fojia taʼsirini kamaytirish, odamlar hayotini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

Oʻzbekiston ana shu yoʻnalishlardagi maqsad-vazifalar boʻyicha muhim amaliy takliflarni BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida, xalqaro sammitlarda ilgari surib keladi. Ana shulardan biri Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan 2021-yil 18-maydagi BMThning maxsus rezolyutsiyasiga koʻra, Orolboʻyi mintaqasi ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi hisoblanadi. Mamlakatimizda mazkur hujjat ijrosini taʼminlashga qaratilgan “Yoʻl xaritasi” belgilab olingan. Uning doirasida 312 milliard soʻm, 22,2 million dollar va 6 million yevro ajratilgan 71 ta tadbir, shuningdek, 1,9 trillion soʻmlik 65 ta ustuvor innovatsion loyihani amalga oshirish ishlari davom etmoqda.

2018-yilning 27-noyabr kuni BMT qarorgohida nafaqat Oʻzbekiston, balki jahon hamjamiyati uchun ham tarixiy voqea yuz berdi: Orolboʻyi mintaqasi uchun Inson

xavfsizligi boʻyicha koʻp tomonlama sheriklik Trast jamgʻarmasi tashkil etildi. Mazkur fond Orolboʻyidagi aholi turmush faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan tibbiy, iqtisodiy rivojlanish, ekologik, ijtimoiy himoya va boshqa sohalar bilan bogʻliq boʻlgan muammolarni hal qilishda muvofiqlashtirilgan yondashuvni yoʻlga qoʻyish, Oʻzbekiston hukumati, BMT agentliklari, donorlik hamjamiyatlarining saʼy-harakatlarini birlashtirish orqali mintaqani rivojlanish jarayoniga birgalikdagi yordamini taʼminlash, texnik hamda moliyaviy resurslarni safarbar qilish kabi ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Oʻtgan yilga kelib, jamgʻarma strategiyasi doirasida Orolboʻyi mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq, turli loyihalarni moliyalashtirish uchun 244 million dollarga yaqin mablagʻ jalb qilingan. Shu bilan birga, jamgʻarma tomonidan 5 ta qoʻshma dastur moliyalashtirildi.

Bunda asosiy eʼtibor dengizning qurigan tubidan millionlab tonna chang va zaharli tuzlar koʻtarilishining oldini olish uchun shoʻrga chidamli oʻsimliklar ekishga qaratilmoqda. Buning uchun saksovl, qoraboʻroq, qandim, cherkez kabi choʻl oʻsimliklarining urugʻi va koʻchatlari tayyorlanib, ogʻir sharoit boʻlishiga qaramay, ekish ishlari davom ettirilaydi. Koinotdan olingan suratlarning hozircha siyrakroq oʻsayotganidan, lekin koʻp oʻtmay, quyuq oʻrmonzorga aylanishidan dalolat beradi. Chunki oʻtkazilgan tadqiqotlar qurgʻoqchilikka va shoʻr tuproqqa chidamli boʻlgan mahalliy daraxtlar, butalar va oʻt-oʻlanlarni aralash holda ekish hisobiga qayta tiklash mumkinligini amalda koʻrsatmoqda. Buning natijasida mahalliy aholining salomatligi va farovonligi yaxshilanishi bilan bir qatorda har yili 28-44 million dollar miqdorida qoʻshimcha foyda keltirishi hamda tuproqdan uglerod chiqishining oldini olish va atmosferadan karbonat angidridni yutish orqali iqlim oʻzgarishini yumshatishi mumkin.

— Saksovl urugʻini aynan kuz va qish oylarida ekish maqsadga muvofiq boʻladi, — deydi Oʻrmon xoʻjaligi agentligi bosh mutaxassisi, biologiya fanlari nomzodi Hojimurod Tolipov. — Urugʻ qish boʻyi qor, yomgʻir suvi ostida yotadi va bahorda oʻsib chiqishi uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi. Orolning shimoliy mintaqaga xos iqlim bu yumushni davom ettirish, koʻchat oʻtqazishga koʻproq eʼtibor qaratishni talab qiladi.

Saksovlzorlar barpo etish orqali koʻchma qumlar mustahkamlanadi, choʻllanish jarayoni sekinlashadi, yerning ustki qismida shamol tezligi kamayadi, chang toʻzonlari boʻlib havoga tuz va qum zarrachalari koʻtarilishi toʻxtaydi. Masalan, bir gektar maydondagi 2 yoshli saksovlzorda shamol taʼsirida qum koʻchishi 20 foiz, 5 yoshlisida 80 foiz, 7 yoshli saksovlzorda esa toʻliq toʻxtaydi. Natijada iqlim moʻtadillashadi, aholining yashashi uchun ijtimoiy-iqtisodiy muhit barqarorligi taʼminlanadi.

Orolboʻyida va dengizning suvi qurigan hududida hosil qilinayotgan “yashil qoplama”larning aksariyat qismini saksovlzorlar



tashkil etyapti. Uning atrof-muhit havosi sofligini taʼminlashdagi xizmati ham katta. Bir gektar maydondagi toʻrt yillik saksovlzor 1158 kub metr kislorod ajratib chiqaradi. Bu va ekilayotgan boshqa choʻl oʻsimliklarini bamosoli sof havo “fabrikasi” deyish mumkin.

Yana bir jihati, saksovlzorlarda yovvoyi hayvonlar paydo boʻlmoqda, chorva uchun ozuqabop ekinlar ekilmoqda. Ushbu hududda qazilgan oʻnlab artezian quduqlaridan suv chiqarilishi natijasida joylarda sunʼiy koʻllar hosil boʻldi, ular atrofida qamishzorlar vujudga keldi, daraxt va butalar oʻsa boshladi. Qumliklarda barpo etilgan saksovl va boshqa choʻl oʻsimliklaridan iborat maydonlar ular bilan uygʻunlashib, choʻl ekotizimlari tiklanyapti, yovvoyi hayvonlar va qushlarni oʻziga jalb etishga, shu yerda yashashga, in qurishga hamda

Bugungi kunda Orolning suvi qurigan hududida oʻrmon barpo etish boʻyicha tadqiqotlar olib boradigan laboratoriya faoliyati yoʻlga qoʻyilgan. Unda har xil tuproq sharoitida ihta oʻrmonlari barpo etish agrotexnikasi ham mavjud. Shu yerda oʻsishi mumkin boʻlgan oʻsimlik turi, xususiyatlari, ularning ekologik ahamiyati, qayta tiklanishi, ozuqa miqdori, fiziologik koʻrsatkichlari aniqlangan. Masalan, katta yoshdagi qora saksovlning 1 tupi 3,93, rixter cherkezi 2,1, qizil qandim 32,3, yulgʻun 7,5 kub metr qumni oʻz shox-shabbasi ostiga yigʻadi.

Ihotazorlarning ahamiyati kattaligi bois, oʻrmonlarni barpo etishga jiddiy eʼtibor qaratilmoqda. Chunki ular taʼsirida hududning tabiiy ravishda oʻsimliklar bilan qoplanish jarayoni 2-3 barobar tezroq kechadi. Mikroiklim moʻtadillashishi barobarida yaylovzorlar



koʻpayishga sharoitlar yaratyapti.

— Oʻrmon barpo etishda, avvalo, har qaysi daraxt va butaning biologik, ekologik xususiyatlarini hisobga olish katta ahamiyatga ega, — deydi Ihot oʻrmonlari va oʻrmon melioratsiyasi laboratoriyasi kichik ilmiy xodimi Goʻzal Otajonova. — Shundan kelib chiqqan holda choʻl zonasiga, aholi yashayotgan hududlarga alohida daraxt va buta turlari tanlab ekish tavsiya etiladi.

unumdorligi hamda ozuqalik sifati 2-3 barobar oshadi.

Navbatdagi mavsum boshlandi

Fevral oyining uchinchi haftasida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Oʻrmon xoʻjaligi agentligi,

Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda ekofaol yoshlar hamkorligida Orol dengizi tubida saksovl ekishning navbatdagi mavsumi boshlandi.

— Bu yil tuzli va qumli shamollar hosil boʻladigan eng zaif joylarda yashil maydonlar yaratishni rejalashtirganimiz, — deydi Oʻrmon xoʻjaligi agentligi ilmiy-tadqiqot institutining loyiha rahbari Zinoviy Novitskiy.

— Prezidentimiz 100 ming gektar maydonda qoʻriqlanadigan oʻrmonzorlar barpo etish vazifasini qoʻygan. Biz 150-200 ming gektar maydonga daraxt ekishni maqsad qilganimiz. Qum va chang boʻronlari masalasini davlatimiz rahbari shaxsan nazorat qiladi va hozirda mamlakatimizda bu muammoga qarshi samarali kurash olib borilyapti. Uni hal etishda oʻrmon pitomniklarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Joriy yilda 150 gektar maydonda pitomniklar yaratish, u yerda saksovl, cherkez, qandim kabi choʻl oʻsimliklarini yetishtirish koʻzda tutilgan. Bugungi kungacha oʻrmon xoʻjaliklari tomonidan 192,63 tonna choʻl oʻsimliklari urugʻlari ekishga tayyorlandi.

Endi mazkur statistik maʼlumotlarga eʼtibor qarataylik. Oʻzbekistonda oʻrmon fondi yerlari yurtimiz umumiy hududining 11,9 million gektarini, yaʼni 26,4 foizini tashkil etadi. Shundan oʻrmonzorlar maydoni 5,3 million gektarga (11,8 foiz) teng boʻlib, oʻrmon bilan qoplangan yerlar esa 3,5 million gektarni yoki respublika umumiy yer maydonining 7,7 foizidan iborat. Bu yerlarning 82 foizi choʻl, 14 foizi togʻ, 4 foizi toʻqaylardir.

— 2023-yilning oʻzida tizimimizda ekologik vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida 235 ming gektar maydonda oʻrmon barpo qilish

ming gektar maydonda saksovl va boshqa choʻl oʻsimliklaridan “yashil qoplamalar” barpo etildi. Joriy yilda oʻrmon fondining 7 ming gektari oʻzlashtirilib, foydalanishga kiritiladi. Choʻl va boshqa turdagi daraxt va butalarning 1150 tonna urugʻlari jamgʻariladi. Hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos 122 million tup nihol va koʻchatlar yetishtiriladi.

Respublikada ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida 240 ming gektar oʻrmonzorlar, shu jumladan, Orol dengizining qurigan tubi va uning boʻyidagi 226 ming gektar maydonda “yashil qoplamalar” barpo etiladi. Loyiha hujjatlari asosida 347 gektar “yashil bogʻlar” hamda sugʻoriladigan qishloq xoʻjaligi yerlari dala chetlarida 2500 gektar maydonda ihta daraxtzorlari vujudga keladi. 30,6 ming gektar maydonda qishloq xoʻjaligi ekinlari ekilib, 5,6 ming gektar maydonda dorivor va ozuqabop oʻsimliklar plantatsiyalari tashkil etiladi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida oʻrmon xoʻjaliklari tomonidan talab kelib chiqqan holda koʻchat va qalamchalar yetkazib beriladi.

Maʼlumki, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida”gi qonunga muvofiq, mamlakatimizda bunday hududlarning 7 toifasi mavjud — davlat qoʻriqxonalari, majmua (landshaft) buyurtma qoʻriqxonalari, tabiat bogʻlari, davlat tabiat yodgorliklari, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror koʻpaytirish va tiklash uchun moʻljallangan hududlar, muhofaza etiladigan landshtafllar, ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun moʻljallangan yerlar.

Prezidentimiz joriy yilning 19-fevral kuni ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi ishlar hamda kelgusi rejalarga oid tadqiqot bilan tanishdi. Unda “Oʻzbekistonda barqaror oʻrmon landshtafllarini tiklash” loyihasi haqida ham axborot berildi.

— Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokidagi ushbu loyihaning umumiy qiymati 205 million dollardan ziyod boʻlib, 6 yil davomida amalga oshiriladi, — deydi Nizomiddin Bakirov. — Bu mablagʻ oʻrmonlar hududini kengaytirish, oʻrmon xoʻjaliklari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, barqaror boshqaruvni joriy etish, ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish kabi maqsadlarga yoʻnaltiriladi. Xususan, oʻrmonlarni tiklash va muhofaza qilishda innovatsion boshqaruv tizimi hamda axborot texnologiyalar joriy etiladi. Degradatsiyaga uchragan oʻrmon yerlari tiklanadi. Chegaradosh hududlardagi landshtafni tiklash boʻyicha qoʻshni davlatlar bilan hamkorlik rivojlantiriladi.

Mazkur tadbirlar natijasida 175 ming gektar oʻrmonlar va 38 ming gektar yaylovlarni qayta tiklash, 19 ming gektarda agro va 5 ming gektarda sanoatbop oʻrmonlar barpo etish, 63 kilometr ekoyoʻlaklar tashkil qilish koʻzda tutilgan.

Shu oʻrinda, 2024-yilning 12-17-fevral kunlari Samarqand shahrida BMThning Yovvoyi hayvonlarning koʻchib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi Tomonlar konferensiyasining 14-yigʻilishi (COP-14) oʻtkazilganini yodga olish joiz boʻladi. Tadbir yakunlari boʻyicha Konvensiyaga aʼzo davlatlar tomonidan ijroga qaratilishi uchun 2024-2032-yillarga moʻljallangan Yovvoyi hayvonlarning koʻchib yuruvchi turlari boʻyicha Samarqand strategik rejasi tasdiqlandi. Ekologik bogʻliqlik boʻyicha global hamkorlik (GPEC) tashabbusi ishga tushirildi.

Toshkent shahrida Xalqaro tabiatni muhofaza qilish itifoqining (IUCN) Markaziy Osiyodagi ilk vakolatxonasi ochildi. Shuningdek, BMT Atrof-muhit dasturining Oʻzbekistonda vakolatxonasini ochish boʻyicha kelishuvga erishildi.

Jahon banki bilan hamkorlikda Markaziy Osiyoda 6 ta transcagaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni barpo qilishga qaratilgan loyihani amalga oshirishga kelishildi. Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar oʻrtasida qator hujjatlar imzolandi.

Garchi qishloq xoʻjaligimiz paxta yetishtirishga ixtisoslashtirilgan boʻlsa-da, uni qayta ishlash sanoati yaqin yillarga qadar juda nochor edi. Chetga xomashyo sotib, na dehqon, na davlat tuzukroq foyda koʻrdi. Yillar davomida sohaga bozor iqtisodiyoti tamoyillari tatbiq etilmasligi manfaatdorlik keskin pasayishiga olib keldi.

Klaster tizimi joriy etilishi, fermerlar yetishtirgan mahsulotlar narxlari erkinlashtirilishi kabi yangiliklar bu manzarani butunlay oʻzgartirib yubordi. 2020-yilga kelib, yurtimizda yetishtirilgan paxta tolasining 100 foizini oʻzimizda qayta ishlash yoʻlga qoʻyilgan ham fikrimiz dalildir.

Bugun birgina Jizzax viloyatida “Jizzax kenteks”, “Agro elegant klaster”, “Jizzax industrial toʻqima”, “Sangzortekstil”, “Mirzachoʻl agroklastergroup”, “Silverleaf”, “Paxtakor teks” kabi 7 ta paxta-toʻqimachilik klasteri va 50 dan ziyod toʻqimachilik korxonasi faoliyat koʻrsatmoqda. Ushbu klasterlarda xomashyo yetishtirishdan ip-kalava, toʻqish, rang berish va qayta ishlangan tayyor mahsulotni isteʼmolchiga yetkazib berishgacha boʻlgan jarayonlarni qamrab olgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Paxtani qayta ishlash orqali qoʻshimcha qiymatga ega, tashqi bozorda talab yuqori mahsulot tayyorlash hajmi oshishi natijasida ushbu korxonalarning iqtisodiy imkoniyati yuksalib, yangi ish oʻrinlari yaratilmoqda.

“Jizzax kenteks” MCHJ tomonidan tashkil etilgan paxta-toʻqimachilik agroklasteri viloyatning eng yirik ishlab chiqarish quvvatlaridan biri. Agroklasterga tomonidan loyiha qiymati 21 million 800 ming yevroni tashkil etuvchi ip yigiruv fabrikasi ishga tushirildi.

Yangicha yondashuvlar

BIR-BIRINI TOʻLDIRADIGAN ISHLAB CHIQARISH

tannarxni tushirib, eksport hajmi oshishiga xizmat qiladi

Shveysariya, Yaponiya va Turkiyadan keltirilgan zamonaviy dastgohlar yordamida kuniga 30 tonna ip-kalava va kiyim-kechak tayyorlanmoqda. Yarim tayyor va tayyor toʻqimachilik mahsulotlari yuz foiz chet elga eksport qilinmoqda. Agroklasterga birgina paxta-toʻqimachilik bilan kifoyalanib qolmay, chigʻitdan yogʻ olinadigan zavodni ham ishga tushirgan. Mazkur korxona yiliga 20 ming tonna xomashyoni qayta ishlash quvvatiga ega. Shu bilan birga, yuz gektar maydonda pomidor, bodring, bulgʻor qalampiri va boshqa qishloq xoʻjaligi ekinlari yetishtirilmoqda, 12 gektar maydonda chorvachilik fermasi bunyod qilinib, goʻsht va sutni qayta ishlash liniyalari tashkil etilgan. Agroklasterga hozir mingga yaqin yosh doimiy ish bilan band.

— Oʻzbekistonda boshqa sohalar kabi qishloq xoʻjaligida ham ulkan oʻzgarishlar kechmoqda, — deydi “Jizzax kenteks” MCHJ direktori Moʻmin Siddiqov. — Bu, avvalo, sohada agroklasterga tizimi joriy etilganida namoyon boʻldi. Dehqon-fermer va klasterlarning moddiy manfaatdorligi oshdi. Paxta xom-ashyosini oʻzimiz yetishtirganimiz bois, bizga ancha arzon tushyapti. Buning hisobiga koʻproq daromad qilyapmiz. Daromadimiz hisobiga esa xorijdan yangi dastgohlar olib kelib, faoliyatimizni yanada rivojlantirish choralarini koʻr-yapmiz. Maoshlar kamligi sabab koʻplab yurtdoshlarimiz xorijga ishlash uchun ketishga majbur boʻlmoqda. Shuning uchun biz xodimlarimizning moddiy manfaatdorligini olingan daromadimizdan kelib chiqib, doimiy oshirib borishga eʼtibor qaratyapmiz.



“Jizzakh Textile” MCHJ Yevropaning eng soʻnggi nusumdagi zamonaviy dastgohlari bilan jihozlangan. Ishlab chiqarish salohiyati, mahsulotlar turi va hajmi, eksport miqdori va geografyasi ham yildan-yilga oshib bormoqda. Agar korxona faoliyatining dastlabki yilida 10 million AQSH dollaridan koʻproq mahsulot eksport qilingan boʻlsa, oʻtgan yili bu koʻrsatkich qariyb 30 million AQSH dollariga yetdi.

— Sohaga qaratilayotgan eʼtibor tufayli viloyatda toʻqimachilik sanoati jadal rivojlanmoqda. Mahsulotlarimiz sifati va hajmi oshishi barobarida eksport salmogʻi ham oʻsib bormoqda, — deydi “Oʻztoʻqimachilik sanoat”

uyushmasining Jizzaxdagi vakili Erkin Qobulov. — Ayni paytda viloyatdagi barcha turdagi sanoat korxonalarining umumiy soni 500 tadan ziyod boʻlsa, ularning qariyb 150 tasi toʻqimachilik yoʻnalishida faoliyat koʻrsatmoqda. Viloyatda toʻqimachilik tarmogʻidagi ishlar va kelgusidagi ulkan rejarlar ushbu sohani iqtisodiyotimizning asosiy drayveriga aylantirishi barobarida voha ahlining turmush darajasi yuksalishiga ham xizmat qiladi.

Farhod NEʼMATOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



Bobiromon QODIROV,
Toshkent kimyo-texnologiya
instituti prorektori, yuridik fanlar
doktori, professor

maqsadi iqtisodiyotning real sohalar uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat. Shunga qaramasdan, oliy ta’lim muassasalari kadrlar tayyorlash va tadbirkorlik faoliyati orqali byudjetdan tashqari mablag‘ hisobidan muayyan daromad ham oladi. Biroq bugungi



Nuqtayi nazar

va institutlarda kadrlar tayyorlash yo‘nalishlari turlicha yo‘lga qo‘yilganini kuzatish mumkin. Masalan, ba’zi universitetlar bir qancha emas, muayyan soha bo‘yicha kadrlar tayyorlayotgan bo‘lsa, ayrim institutlar turli yo‘nalishlarda mutaxassislar tayyorlamoqda. Ayniqsa, bu holat nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida ko‘proq kuzatiladi. Qolaversa, nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarining nomlanishiga ham e’tibor qaratilmayapti. Afsuski, yetarli moddiy-texnik bazasi hamda professor-o‘qituvchilar



jamoatchilik vakillari va homiylardan iborat bo‘lgan yuridik shaxs maqomisiz oliy ta’lim muassasalarining kuzatuv kengashlari tashkil etildi.

Tashkiliy, akademik va moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida o‘quv rejalari, fan dasturlari va malaka talablarini ishlab chiqish, o‘quv adabiyotlarini yaratish va ta’lim jarayoniga joriy etish, tarkibiy tuzilmasini tasdiqlash, xorijiy fuqarolarni ishga qabul qilish, ish haqi miqdorini, to‘lov-kontrakt muddatini belgilash, to‘lov-kontrakt asosida qabul kvotasini shakllantirish va boshqa masalalarni mustaqil amalga oshirishi oliy ta’lim muassasalari uchun keng imkoniyat bo‘ldi.

sezilarli ta’sir etmoqda. Natijada xarajat daromaddan oshib ketmoqda. Shuning uchun bu masalani ham ko‘rib chiqish ayni vaqtda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalarining kuzatuv kengashlari vakolatini qayta ko‘rib chiqish, mavjud mexanizmlarni amalga oshirish uchun tajriba-sinov tariqasida ayrim davlat oliy ta’lim muassasalarida qo‘llash orqali ijobiy samara bergan taqdiridagina boshqa oliy ta’lim muassasalariga ham tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Xorijda bo‘lgani kabi mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari huruzida ham sobiq talabalar, ya’ni bitiruvchilarning nodavlat shakldagi jamg‘armasi tashkil etilisa, albatta, oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, talabalar va professor-o‘qituvchilarni o‘q‘llab-quvvatlashga xizmat qilgan bo‘lar edi.

Ta’lim islohotlarini jadallashtirish zarurati

Prezidentimizning 2024-yil 2-fevraldagi “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori mazkur muammolarni bartaraf etish, shuningdek, o‘qitish sohasidagi kadrlar salohiyatini oshirish, ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni va xizmatlar ko‘rsatishni yangi tamoyillar asosida tashkil etish, ta’lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, islohotlarni yanada jadallashtirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, qaror bilan davlat muassasasi shaklida tashkil etilgan “Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisining o‘qitish sohasini isloh qilishdagi asosiy faoliyat yo‘nalishlari, vakolat va huquqlari belgilab berildi. Ayniqsa, ta’limga oid masalalarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalar majburiy tartibda loyiha ofisi bilan kelishilishi shartligi belgilangani ham ta’lim qonunchiligidagi bo‘shliq va noaniqliklarni bartaraf etish uchun poydevor yaratadi.

Fikrimizcha, loyiha ofisi nafaqat ta’lim dasturlari, balki butun bir ulzüksiz ta’lim, xususan, oliy ta’limga oid qonunlardan tortib, barcha qonunosti hujjatlarini tahlil qilishi hamda tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqishi zarur. Bu borada quyidagi asosiy yo‘nalishlarga e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

Birinchidan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun bilan bir qatorda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lib, bizningcha, yaxlit ta’lim kodeksini yaratish konsepsiyasi bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish zarur.

Ikkinchidan, oliy ta’limga oid munosabatlarni tartibga soluvchi barcha normativ-huquqiy hujjatlarini inventarizatsiyadan o‘tkazish, ularga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish choralarni ko‘rish lozim.

Uchinchidan, xalqaro tajriba asosida oliy ta’lim muassasalarini rahbarlari, jumladan, rektorlarni tanlash va tayinlash (saylash) ning yangi mexanizmlarini tajriba tariqasida bosqichma-bosqich tatbiq etishni ko‘rib chiqish kerak.

To‘rtinchidan, chuqur tahlil va puxta ishlangan tavsiyalar asosida “Ta’lim sohasini rivojlantirishning milliy dasturi” yoki “Ta’limni rivojlantirish strategiyasi — 2030” loyihalarini ishlab chiqish taklif etiladi.

asosida berilgan uch xonali yangi uyga ko‘chib o‘tdi. Nogironlar uchun mo‘ljallangan elektron aravaga ega bo‘ldi. Bu e’tibor va rag‘bat uning hayotga bo‘lgan ishonchini yanada oshirdi. Boshqalardan kam bo‘lmislik, hayotda o‘z o‘mini topishdek mas’uliyatli ishlarga da’vat etdi, kuch-quvvat bag‘ishladi.

— Toza qalb va matonat timoli bo‘lgan Sevara bilan haqli ravishda faxrlanamiz, — deydi “Toshariq” mahalla fuqarolar yig‘ini xotin-qizlar faoli Tursunoy Nazirova. — U nafaqat tadbirkor, balki mehri-saxovat ehchisi sifatida hurmat va e’tibor topganlardan. Mahalla, odamlar hayot tarzi bilan bog‘liq har bir ishda faol, tashabbuskor. Bayramlar, qutlug‘ sanalarda kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, yakka-yolg‘izlarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash, moddiy va ma’naviy ko‘mak berish ishlariga bosh-qosh. Unga havas qilib, kasb-hunar o‘rganayotgan matonatli xotin-qizlar safi kundan-kunga ortib bormoqda. “Beshariq qizlari” telegram guruhi tashkil qilingan. Unda tumanimizdagi xotin-qizlar hayot tarzidagi har bir o‘zgarish va tashabbuslar haqida o‘rtoqlashib, o‘zaro fikr almashib turamiz.

Qatrontog‘ etaklaridan Sayxun sohillarigacha yastangan ko‘hna Beshariqning matonatli va jasoratli qizi sifatida elga tamilgan Sevara Isroilova jismoniy imkoniyati qanchalik cheklanmasin, yangi maqsad va g‘oyalari yo‘lida izlanmoqda, mehnat qilmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bugun shiddat bilan taraqqiy etayotgan jamiyatda har jabhada sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ayrim masalalarni qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy sohalarining asosiy yo‘nalishi hisoblangan ta’lim, shu jumladan, oliy ta’lim tizimida ham ayni vaqtda mavjud muammolarni tahlil qilish va jiddiy islohotlarni amalga oshirish dolzarb masalalardan.

Butun dunyoda ta’lim va ilm-fanga e’tibor tobora ortib borayotgan bir paytda mamlakatimiz oliy ta’lim sohasida ham katta o‘zgarishlar bo‘layotir. Jumladan, davlat oliy ta’lim muassasalari soni bir necha barobar oshdi. Nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari tarmog‘i ham ancha kengaydi. Oliy ta’lim qamrovi darajasi 9 foizdan 42 foizga yetdi. Biroq zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqib, ta’lim sifatini ta’minlash bugungi talabga javob beryaptimi, tayyorlanayotgan oliy ma’lumotli kadrlar ish beruvchilar talabiga mosmi, degan savollar dolzarbligicha qolmoqda. Oliy ta’lim tizimida erishilayotgan yutuqlar bilan bir qatorda mavjud muammolar va ularni bartaraf etishning aniq mexanizmlari haqida oshkora gapirmas ekanmiz, o‘zimiz istagan va kутgan natijalarga erisha olmaymiz.

Davlatimiz rahbarining har gal tizimdagi muammolarga to‘xtalib, topshiriq bergani bu sohaga e’tibor naqadar yuqoriligidan dalolat. Aslida, yuqoridan topshiriq kutmasdan, har bir yo‘nalish, xususan, ta’lim qonunchiligi va tizimdagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ularning yechimi bo‘yicha ishlar amalga oshirilishi kerak emasmi?!

Oliyoghlar maqomi aniq belgilanishi lozim

Har qanday tashkilot, jumladan, oliy ta’lim muassasasining faoliyati yuridik xususiyati bilan belgilanadi. Yuridik tadqiqotlarda OTMlarning huquqiy maqomiga umumiy ta’riflar berilgan bo‘lsa-da, turlicha qarashlar mavjud. OTMning maqomi bir nechta asosiy qismlarga ajratiladi. Maqsad va vazifalar, oliy ta’lim muassasasini tashkil etishning huquqiy asoslari, faoliyat yo‘nalishlari, huquq va majburiyatlari, javobgarligi, boshqarish tartibi, tarkibiy tuzilmasi, shuningdek, yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlari, tashkiliy-huquqiy shakli va boshqa yo‘nalishlar orqali namoyon bo‘ladi.

Yuridik shaxslar tizimida davlat oliy ta’lim muassasasi tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlar toifasiga kirib, asosiy maqsadi daromad topish hisoblanmaydi. Shuningdek, ishlab topilgan daromad muassislar o‘rtasida bo‘linmaydi. Davlat oliy ta’lim muassasasining asosiy

raqobat muhitini yaratish maqsadida tashkil etilayotgan nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarining asosiy maqsadi daromad topishga qaratilganini kuzatish mumkin. Kadrlar tayyorlash sifati va raqobatbardoshligi masalasiga e’tibor berilmayapti. Shuning uchun ham deyarli barcha nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida muhandislik-texnologiya yo‘nalishida emas, balki, asosan, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlanmoqda.

O‘z navbatida, oliy ta’lim muassasalarining maqomini ko‘rib chiqishda ularning nomlanishi turlicha ekaniga guvoh bo‘lamiz. Masalan, xorijlik ko‘pgina olimlarning fikricha, qonunchilikda oliy ta’lim muassasalariga “muassasa”, “ta’lim muassasasi”, “budjet muassasasi”, “ta’lim tashkiloti” va “notijorat ta’lim tashkiloti” kabi iboralar qo‘llanishi “oliy ta’lim muassasasi” tushunchasining bir tal qalqin etilmasligiga olib keladi. Mamlakatimiz qonunchiligida ham oliy ta’lim muassasalari maqomi bilan bog‘liq tegishli mezonlar belgilanmagan.

Aynan shuning uchun ham davlatimiz rahbari hozir dolzarb bo‘lib turgan masala — oliy ta’lim muassasalarining maqomini belgilash bo‘yicha aniq mezonlar ishlab chiqilishi, ularga “milliy”, “davlat” universiteti, akademiya yoki institut maqomini berishning aniq mezonlarini belgilashga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha qator ishlar bajarildi. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Tahlillarga ko‘ra, mazkur qonunda ta’lim muassasalari maqomi turlicha talqin qilinadi. Qonunning asosiy tushunchalar aks ettirilgan 3-moddasida “davlat ta’lim muassasasi” va “nodavlat ta’lim tashkiloti”ga ta’riflar berilgan. Demak, davlatga qarashli muassasa “ta’lim muassasasi”, nodavlat muassasa esa “ta’lim tashkiloti” sifatida belgilanganini ko‘rish mumkin. Ammo qonun matnida davlat yoki nodavlat hisoblanishidan qat’i nazar, 60 ta joyda “ta’lim muassasasi” deb qayd etilgan bo‘lsa, 215 ta joyda “ta’lim tashkiloti”, deya keltirilgan.

Shuning uchun hujjatlarda hanuzgacha turlicha, ya’ni ayrim joylarda ta’lim tashkiloti, deb yuritilayotgan bo‘lsa, ba’zi hujjatlarda ta’lim muassasasi, deb yozib kelinadi.

Tashkilot va muassasa tushunchalari amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan. Fuqarolik kodeksining 40-moddasida foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo‘lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Ushbu kodeksda tijoratchi tashkilot bo‘lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta’minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, kodeksning 76-moddasida boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo‘lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to‘la yoki qisman moliyaviy ta’minlab turiladigan tashkilot muassasa hisoblanishi belgilangan. Shu nuqtayi nazarga ko‘ra, Fuqarolik kodeksi normalaridan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasasi ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishi, shuningdek, asosiy faoliyati tijoratchilikdan iborat bo‘lmagan sababli tashkilot yoki muassasa deb atalishi masalasi ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Qolaversa, 2003-yilda tasdiqlangan Oliy ta’lim to‘g‘risidagi nizomga muvofiq, mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarining universitet, akademiya va institut kabi turlari belgilangan. Unga ko‘ra, universitet ta’lim va bilimning bir qancha sohalar, akademiya bilim va ta’limning muayyan sohalar, institut esa, odatda, bilimning muayyan sohasi doirasida oliy va undan keyingi ta’lim dasturlarini amalga oshiradi. Bu holatda ham bugun mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan universitet, akademiya

salohiyatiga, zarur o‘quv adabiyotlari fondiga ega bo‘lmagan holatlarda ham tashkil etilgan nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari uchraydi. Shu bilan birga, yigirma yil oldin tasdiqlangan Oliy ta’lim to‘g‘risidagi nizom ham bugungi talablar va yangi qabul qilingan hujjatlar asosida qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Erkinlik qanday natija beriyapti?

Prezidentimizning 2021-yil 24-dekabrda tegishli qarorlariga muvofiq, 2022-yildan mamlakatimizdagi 40 ta davlat oliy ta’lim muassasasi maqomi jihatdan tashkiliy, akademik



va moliyaviy mustaqillikka ega bo‘ldi hamda ularga qator masalalarda mustaqil qaror qabul qilish vakolati berildi.

Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida vasiylik kengashlari tugatilib, tarkibining kamida 70 foizi tegishli vazirlik, idoralar, kadrlar buyurtmachilari,

holda, so‘nggi 3-4 yilda talabalar to‘lov-kontrakt summasining oshirilmamasdan saqlab kelinayotgani, albatta, tahsinga loyiq. Ammo professor-o‘qituvchilarning oylik maoshi, kommunal to‘lovlar va boshqa saqlash xarajati bir necha barobar oshgani bir talabaga yil mobaynida sarflanayotgan chiqimni qoplashga

Oramizdagi odamlar

DASTLAB — HAVAS, KEYIN — BIZNES

Ko‘hna Beshariqning Zarqaynar mahallasida umrguzaronlik qilayotgan “Jasorat” medali sohibi Sevara Isroilova hayot yo‘li ko‘pga ibratli. Imkoniyati cheklangan, boshqalar qatori emin-erkin harakatlana olmasligiga qaramay, hayotda o‘z o‘rnini topish, kimgadir yuk bo‘lib emas, aksincha, jamiyatga, odamlarga naf berish yo‘lida izlanib, bor imkoniyatlarini ishga solib, mehr berib, mehr ko‘rayotgan oqilalardan biri.

Ma’murjon aka va Matluba opa imkoniyati cheklangan farzandini boshqalardan kam qilmaslik, o‘ksimmaslik yo‘lida jonni jabborga berib, oq yuvib, oq taradi. Sochlariga oq, yuzlariga ajin tushgan mushfiq ota-ona hanuz dilbandidan ko‘ngil uzolmaydi. Farzandining har bir harakati, yutuqlaridan quvonadi, bahra oladi, qo‘llab-quvvatlashga harakat qiladi.

Sevara hamisha yaxshi kishilar mehr-muhabbatini his qilib ulg‘aydi. Tushkunlikka tushmadi, o‘ksinmadi, aksincha, hayotga hamisha umid bilan boqdi, faqat oldinga intildi, izlandi. Bu sa’y-harakatlar uni hayot maktabida o‘z o‘rnini topish, bir oilaning munosib farzandi, oila bekasi bo‘lish imkonini berdi.

U yaratgan turfa uy-ro‘zg‘or buyumlari, oyoq kiyimlar, ajib qo‘g‘irchoqlar, zardo‘zlik

liboslari hayratingizni oshiradi. Bir ayol mehnati, sabr-bardoshi, izlanishlari samarasidan quvonasiz. Ularning har biri mehr-muhabbat bilan yaratilganiga guvoh bo‘lasiz.

Beshinchi sinfga qadar maktabga bora olmaganman, — deya xotirlaydi Sevara. — Ustozlarim uyga kelib, mashg‘ulot o‘tib ketardi. Keyinroq maktabga qatnadim. Fanlarni o‘zlashtirishda birmuncha qiyinchiliklarga duch kelganimda dugonalarim, ustozlarimdan mehr-muruvvat ko‘rganman. 9-sinfni tamomlab, Farg‘ona shahridagi imkoniyati cheklanganlar kasb-hunar kolleji kompyuter va kompyuter tarmoqlari operatori yo‘nalishida tahsil oldim. 2016-yili Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filialiga o‘qish uchun hujjat topshirib, 63 ball to‘pladim. O‘sha paytlarda

imkoniyati cheklangan abituriyent yoshlar uchun bugungidek imtiyoz va qulayliklar berilmagan edi. Omadim kelmay, uyga qaytdim. Tuman markazida buxorolik zardo‘zchi ustalar o‘quv kursi tashkil qilganini eshitib qoldim. Kursda o‘qib, sertifikat oldim. Mahallamizdagi 5-umumta’lim maktabida yoshlar uchun bepul zardo‘zlik to‘garagi tashkil qildim.

Dastlab shunchaki havasdan boshlangan sa’y-harakatlar yillar silsilasida rivojlanib, taraqqiy etdi. 2020-yilda “Madad qo‘llar” unitar korxonasiga asos solib, o‘zi kabi nogironligi bo‘lgan o‘n nafar xotin-qizni bir maqsad yo‘lida birlashtirdi. Ular yotoqxona choysablari, ko‘rpa-to‘shak, milliy liboslar tuyoqlaydi. Mahsulotlarga bo‘lgan talab kundan-kunga ortib boryapti. Sevara bilan ishlash, undan hunar o‘rganish istagida bo‘lgan yoshlar, xotin-qizlar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

— Prezidentimiz raisligida ijtimoiy himoya sohasidagi vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda imkoniyati cheklangan shaxslarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fikr-mulohaza, yaratilgan yangi



imtiyoz va imkoniyatlar kuchimizga kuch, g‘ayratimizga g‘ayrat qo‘shdi, — deya so‘zida davom etdi Sevara. — Xodimlarning 50 foizida nogironligi bo‘lgan tadbirkorlarga

davlat buyurtmachilari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish, bunday odamlarni ishga olgan korxonalariga tadbirkorlik reytingida qo‘shimcha ball berish borasidagi imkoniyatlar faoliyat ko‘lamimizni yanada kengaytirdi. Ayni kunda kasanachilik asosida yumshoq o‘yinchoqlar, zardo‘zlik buyumlari tayyorlash yo‘nalishida yangi loyihalarni ishga tushirishni maqsad qildik. Bu nafaqat nogiron, balki uyda ishsiz o‘tirgan xotin-qizlar bandligini ta’minlash va daromadga ega bo‘lishida katta ahamiyatga ega. Har bir muvaffaqiyatim ortida yaqinlarim mehr-muhabbati, qo‘llab-quvvatlashini his qilib kelayman, ulardan kuch-quvvat olaman. Har bir kun, har bir daqiqaga men uchun qadrdi. Odamlarga ko‘proq manfaat keltirishni xohlayman, bu yo‘lda menga hamjihat bo‘lganlarga rahmatlar aytaman, yolg‘iz emasligimni his qilib yashayman.

Xalq farovonligi, yurt taraqqiyotiga baholi qudrat hissa qo‘shib kelayotgan Sevaraning mehnat va izlanishlari besamar ketgani yo‘q. 2020-yili “Jasorat” medali bilan taqdirlandi. “Toshariq” mahalla fuqarolar yig‘inida subsidiya



ʻAjdodlar merosi

Jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma'lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o'ringa ega.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

BOBURSHUNOSLIK BO'YICHA ILMIY PLATFORMA YARATILDI



Ajdodlar merosini asrab-avaylash, uni bugungi yosh avlodga targ'ib qilish — ezgu an'ana. Ularni faqat tavallud topgan kunida yod etish emas, balki ulkan ma'naviy merosidan umrimiz davomida foydalanishimiz kerak. Biz siymosi va merosiga qayta-qayta murojaat qilishimiz lozim bo'lgan ana shunday bobokalonlarimizdan biri, shubhasiz, Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Uning ijod gulshanini qadrlab, nomini ulug'lab amalga oshirilgan ishlar hammamizga ma'lum. Prezidentimizning Bobur ijodini yanada keng targ'ib qilishga qaratilgan 2023-yil 25-yanvardagi "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ana shu ezgu ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Qarorga muvofiq, Bobur nomli xalqaro jamoat fondi tomonidan alohida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, Bobur siymosini abadiylashtirish, uning o'lmas merosini keng targ'ib etishga qaratilgan ezgu ishlar qatorida hukumatimiz, xususan, Andijon viloyati hokimligining

bevosita qo'llab-quvvatlashi bilan Xalqaro Boburshunoslik ilmiy elektron platformasi yaratilganini ta'kidlash lozim. Taniqli boburshunos olim, professor Abdumajid Madraimov boshchiligidagi fond jamoasi va Temuriylar tarixi davlat muzeyi vakillari bilan hamkorlikda 8 kishidan iborat ishchi guruh tuzilib, mazkur elektron platformani yaratish borasida samarali mehnat qilindi.

Ishchi guruh vakillarining aytishicha, dastlab sohaga doir ma'lumotlarni joylash va ularni sahifalarga taqsimlash, ilmiy ma'lumotlardagi xolislikni saqlash bo'yicha jamoa oldida bir qator savol va muammolar ham paydo bo'lgan. Chunonchi, shu paytgacha o'zbek internet tarmog'ida birorta ham tarixiy shaxs yoki



allomaning faoliyatiga bag'ishlangan sayt mavjud emasligi, tarixiy shaxslarimiz faoliyatini targ'ib etadigan va bolalar uchun yaratilgan multfilmlar, videoo'yinlar yaratilmagani, Bobur va boburiylarga oid ilmiy-tarixiy ma'lumotlar, asosan, ingliz va rus tillarida tarqalgan shular jumlasidan. Shuningdek, hozirgacha boburiylar sulolasiga nisbatan mashhur bir xatolik asosida shakllangan "Buyuk mo'g'ullar sulolasi" atamasining ommalashgani, Bobur asarlari, xususan, uning eng yirik asari "Boburnoma"ning tanqidiy matni yaratilmagani ham jamoa oldiga qo'shimcha vazifalar yuklagan. Bobur va boburiylarga oid shaxs nomlari, shuningdek,

asar tarjimalarida har xilliklar mavjudligi, boburiylarga oid sifatli rasmlar va ularning madaniyatini aks ettiruvchi madaniyat namunalari, me'moriy inshootlar galereyasi o'zbek segmentida mavjud emasligi hamda Bobur asarlarining qo'lyozmalari, ularning joriy alifbo bilan qadam-baqadam elektron shakli qo'yib borilmagani ham loyihaning ishgatushish muddati nisbatan cho'zilishiga sabab bo'ldi. Shunga qaramay, ishchi guruh a'zolari loyihani muvaffaqiyatli yaratishning uddasidan chiqdi.

Kuni kecha Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida mazkur elektron platformaning

taqdimot marosimi o'tkazildi. Tadbirda platformaning tarkibiy tuzilishi hamda imkoniyatlari taqdimot qilindi. baburid.uz rasmiy domenida sinov tariqasida ishga tushirilgan platformaning bosh sahifasida Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi haqida batafsil ma'lumotlar bilan tanishish mumkin. Keyingi bo'limda Bobur shaxsiyati bilan bog'liq barcha yangiliklar joylab boriladi.

— Ushbu platforma uchun xarid qilingan internet maydoni hajmi 20 mingdan ziyod kitob, maqola kabi fayllar yuklamasini o'zida

mujaassamlashga qodir, — deydi loyiha rahbari Abdumajid Madraimov. — Platformaning bosh sahifasiga tanlangan kontent va ma'lumotlar maktab yoshidagi bolalardan tortib, katta yoshli auditoriyani ham o'ziga jalb qilishi nazarda tutilgan bo'lib, boburiylar davriga oid sara miniatyuralar, asarlardan iqtiboslar hamda o'zbek kinoijodkorlari tomonidan tasvirga olingan videolavhalar ajratib olingan va mavzulashtirilgan holda joylashtirib chiqilgan. Bu platforma kuzatuvchilariga Bobur siymosini yanada jonli tasavvur qilish imkoniyatini beradi.

Platforma kelgusida shakl va mazmun jihatdan muntazam boyitib boriladi.

Jonibek ALIJONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mutolaa madaniyati



Hokimlarning yoshlar bilan uchrashuviga ko'p guvoh bo'lganmiz, bo'lib kelaypmiz ham. Tuman, viloyat rahbarlari mustaqil hayot ostonasida turgan yigit-qizlar bilan ularning orzu-istaklari, oldiga qo'ygan maqsadlari va mavjud muammolari yuzasidan o'rtoqlashadi. Yoshlarning g'ayrati, shijoatini ko'rgan hokim buvalarimizning tantiligi tutib ketib, boshiga baxt qushi qo'ngan yigit-qizlar ham talaygina. Umuman olganda, bunday uchrashuvlarda ko'ngli osmon qadar yuksalgan yoshlarning ko'zlari quvonchdan porlaydi.

Qo'rg'ontepa tumani hokimi Alisher Xalilovning o'zgacha formatdagi uchrashuvida ishtirok etayotgan yoshlar esa bir umrlik "sodiq do'st"lari safini kengaytirishga ahd qilayotgani aniq. Boisi, qaysi maktabga bormasin, o'quvchilardan "Oxirgi o'qigan kitobingiz qaysi", deb so'raydigan hokim endilikda ezgu bir loyiha doirasida ular o'qigan yoki o'qiyotgan kitobning nominigina emas, asarning ahamiyati, mazmun-mohiyati haqidagi fikrlarini ham tinglay olishi mumkin. Shu ma'noda bo'lsa kerak, vodiyning eng katta telegram kanalida unga "boshqacha hokim" deya nisbat berildi.

Jurnalist Elmurod Ermatov "Biz majlislarda o'tiradigan, topshiriqlar bilan band hokimlarni ko'rardik. Qarangki, dunyoning

durdona kitoblarini o'quvchilar bilan tahlil qilib o'tiradigan hokimlarimiz ham bor ekan", deya hokimning ishlariga rivoj tiladi.

Biz esa kitobxon hokimning o'zi bilan bog'lanib, ezgu tashabbusga kimlar va nimalar turtki bo'lgani bilan qiziqdik.

— Maktablarga borganimizda, o'quvchilarning fanlarni qay darajada o'zlashtirayotganini sinab ko'rishdan tashqari ularning qaysi badiiy asarlarni o'qiyotgani bilan ham qiziqaman, — deydi hokim. — Hozir maktab direktorlari sinflar kesimida o'quvchilarini kitob o'qishga targ'ibot qilish bilan jiddiy shug'ullana boshladi. Navbati bilan barcha ta'lim muassasalariga borishga harakat qilayotgan paytimiz tumanimizdagi ixtisoslashtirilgan maktabning direktori

BU YERDA HAMMA TENG yoxud kitobxon hokimning o'zgacha formatdagi uchrashuvi

Muhammadjon Otajonov bir taklif bilan keldi. O'quvchilari "Hokimimiz o'zi o'qigan kitoblarni bizga ham aytgin, biz ham o'sha asarlarni o'qib chiqsak, keyin o'zi bilan ham debat shaklida suhbat qilsak, yaxshi bo'lardi", debdi.

Bu taklif, tashabbusni bajonidil qabul qildim. Zero, maktablarga nazorat yuzasidan borib, yo'l-yo'lakay o'qiyotgan kitobini so'rash, shoshilinch tarzda 5-6 badiiy asarni tavsiya qilish o'z yo'lga. Ammo yoshlarning ko'ngliga kirish, ular bilan dildan munozara qilish butunlay boshqa. 4-sinfdan boshlab o'qigan badiiy asarlarimning oltmishga yaqinini qog'ozga tushirib, maktabga yetkazdim. Ro'yxatdagilarning aksari respublikamiz miqyosida o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovi uchun tavsiya etilayotgan asarlar. Nima bo'lganda ham asosiy maqsadimiz — yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirish barobarida vatanparvarlik tuyg'usini oshirish, kelajagimiz vorislari milliyligimizni yanada yaxshiroq anglashiga ko'maklashish.

Xullas, birinchi qadamni ixtisoslashtirilgan maktabimizdan boshladik. Aslida, maktabga borganimda, uchrashuv uchun odatdagidek rasmiy maydon hozirlangandi. Men esa noan'anaviy davra qilishimiz kerakligini, bu borada hech qanday to'siq bo'lmasligini aytdim. Bir-birimizni aniq-tiniq ko'rib turadigan doira shaklida joylashdik. O'quvchilarga "Tasavvur qiling, qarshingizda hech qanday hokim, direktor, umuman, birorta rahbar yo'q, bu yerda hamma teng, faqat



kitobni sevuvchi insonlar jamlangan", dedim. Sababi, inson qalbining tub-tubidagi fikrlarini, hislarini shunaqangi erkin davradagina bilib olish mumkin.

Samimiy gaplar bilan boshlangan uchrashuvda yoshlar chindan ham o'zlarini ancha erkin his qildi. Ular hokimning tilidan zo'r qiziqish bilan Gabriel Garsia Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" romani haqidagi taassurotlar, yozuvchidan Gollivud kinoijodkorlari asarni ekranlarga olib chiqish uchun 6 million dollargacha gonorar taklif qilgani, lekin yozuvchi bunga rozi bo'lmay, "Agar bu asarimni dunyoda 1 million odam o'qisa, 1 million xil tasavvurga ega bo'ladi. Lekin kino ishlansa, qahramon haqida bitta tasavvur paydo bo'lib, asar qobiqqa tushib qoladi", deganini eshitdi.

Hokim Markesning gapiga isbot sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarini mutolaa qilish bilan kino talqinida ko'rishning farqini tushuntirdi. Tuman rahbari, shuningdek, o'quvchilar bilan Chingiz Aytmatovning "Oq kema", Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asarlari, umuman, jahon va o'zbek adabiyoti durdona asarlaridan olgan taassurotlari bilan o'rtoqlashdi. "O'n besh yoshli kapitan"ni o'qib, dengizchi bo'lishni istamagan bola qolmagani, "Oq kema"ni o'qiganlar bolakayning orzulari, iztiroblariga sherik bo'lgani, "Dunyoning ishlari"dan millionlab insonlar ta'sirlangani haqida gapirib, bu asarlarni o'qimagan bolalarda ham katta qiziqish uyg'otdi.

O'ta qizg'in va bahslarga boy davra suhbatidan so'ng tuman hokimi bunday ajoyib uchrashuvdan minnatdorigini bildirib, barcha

kitobxon o'quvchilarni esdalik sovg'alar bilan taqdirladi. Yigit-qizlar shunday uchrashuvlar tez-tez bo'lishini juda-juda istashi, buning uchun har qancha kitob o'qishga tayyorliklarini aytdi. Tumanda 50 dan ziyod umumta'lim maktablari bor. Tumandagi ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish bo'limi rahbari Avazbek Mamataliyevning aytishicha, ularning barchasiga hokim o'qigan kitoblar ro'yxati yetkazilgan. Qanchadan-qancha kitobxon yoshlar bu uchrashuvga astoydil tayyorlanayotgani aniq. Shunday ekan, ezigulik barchaga barobar ulashilayotgani quvonarli.

Shu o'rinda alohida aytish joizki, yoshlar orasida azaldan ilmu ma'rifatga intilgan, mutolaa madaniyati yuqori bo'lgan yoshlar Qo'rg'ontepaning iftixori bo'lib kelgan. Kuni kecha ayni hudud farzandlari — Dilnavoz Hayitahmatova hamda Arofat Abdug'aniyeva "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovining respublika bosqichida Andijon viloyati sharafiga uchun kurashdi.

Darvoqe, ikki yil avval tumandagi "Dehqonchek" MFY idorasi hamda mahalla faollari hamkorligida yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan "Ilm bellashuvi" tashkil qilingani, hozirda ham bunday tadbirlar davom etayotgani tumanda kitobxonlik keng quloqchoyayotganidan dalolat beradi. Yoshlarning, ayniqsa, jadidlarimiz asarlariga jalb etilayotgani yanada quvonarli.

Bu holat, bu uchrashuv bizni juda hayajonga soldi, quvontirdi. Yosh avlodga kitob o'qishning foydasi, ahamiyati haqida ma'ruzaga nisbatan kitobxon yoshlar bilan shu kabi jonli muloqot, o'qigan asarlarining mazmun-mohiyati haqida dildan suhbat butunlay boshqacha ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. Zero, insoniyat yaratgan mo'jizalarning old qatoridan o'rin olgan kitobga bo'lgan mehr ana shunday samimiylik, do'stona fikr almashuv orqali uyg'onadi. Eng muhimi, bu mehrni ko'ngilga abadiy muhrlamoq kerak.

Munajat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 509.
9800 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolopak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Gulichehra Durdiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'ZA yakuni — 21:35 Topshirildi — 22:50